

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK ADABIYOTI UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

ABROROV UMIDning

**TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONIDA “ALPOMISH” DOSTONIDAGI
ILG‘OR G‘OYALARDAN FOYDALANISH**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. Jumanazarov U.A.

JIZZAX -2014

REJA:

KIRISH.....

I BOB. XALQ DOSTONLARI - XALQ PEDAGOGIKASINING ASOSI VA TARKIBIY QISMI EKANLIGI.....

1.1. Folklor, doston va xalq pedagogikasi atamaları haqidagi ilmiy-nazariy tushunchalar, ularning mazmuni, mohiyati va ta'lim-tarbiyadagi o`ziga xos o`rni.....

1.2. Xalq dostonlari - avlodlarni kamolatga etaklovchi milliy tarbiya manbai

II BOB. «ALPOMISH» DOSTONIDA MILLIY TARBIYAMIZNING ASOSLARI VA PEDAGOGIK TAMOYILLARI.....

2.1. «Alpomish» dostonida islomiy qarashlarning pedagogik-didaktik talqini.....

2.2. Dostonda davlatni boshqarish tizimining talqini.....

2.3. Dostonda shaxs erki muammosining qo`yilishi.....

Xulosalar.....

Adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari har bir jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan va hozir ham shunday ahamiyat kasb etmoqda. Ammo bu masalaning nihoyatda dolzarbligi jamiyatning yangilanish, yangi bir pog'onaga ko'tarilish davrida, sifat-o'zgarishlari ro'y berayotgan davrda yanada ham kuchayadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi. Bunday deyishimizning asosiy sababi shuki, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga insoniy fazilat va xislatlar singdiriladi, xolos. Ana shular evaziga esa insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi. Agar tarix sahifalaridan o'chmas iz qoldirgan va ma'naviy merosimiz xazinalaridan munosib o'rin egallagan nodir manbalarga bir nazar solsak, ushbu mushohadaning yanada to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz: buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanmasinlar, bo'lg'usi kelajak avlodlarining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tiborini qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. Ular o'zlarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki tarbiyaga doir maxsus asarlarida bayon etganliklarini ko'ramiz. Bundan biz keyingi yosh avlodlar ham faxrlanamiz, ham g'ururlanamiz.

Baholi qudrat amalga oshirilgan malakaviy bitiruv ishi mavzusining hozirgi kunda ham yanada dolzarbligi quyidagi holatlarda ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, rivojlanish, yangilanish va demokratik jamiyat qurish sari shaxdam qadamlar bilan odimlab boryapti. Hozirgi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy sohada ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'layapti. Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning nutq va risolalarida kelajagi buyuk davlatning istiqbolli yo'llari va tamoyillari, hozirgi jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilanishi

va rivojlanishining asosiy negizlari keng yoritib berilganligini ko`rayapmiz va bunga to`liq guvoh bo`layapmiz.

Ikkinchidan, ma'naviy-axloqiy tarbiya ma'naviyatning asosi, ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, qisqacha shunday fikrni aytamiz: hozirgi mustaqil davlatimizda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish shu kunning davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan eng dolzarb va mas'uliyatli vazifalaridan biri bo`lib qolmoqdaki, uni bus-butunicha o`quvchi-yoshlar qalbiga va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllarida, shu jumladan, bizning tadqiqotimiz mavzusiga aloqador bo`lgan ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham amalga oshirilishi shart va zarur. Bu esa tanlagan mavzuning nihoyatda dolzarbligini ko`rsatadi.

Uchinchidan, «Ta'lim to`g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiya sohasidagi tub yangilanishlarni hamda islohotlarning asosiy yo`nalishlarini ko`rsatib berdi, ta'lim-tarbiya sohasidagi bunday yangilanishlar bugungi kun talablarini o`zida to`lig`icha aks ettiradi, eng muhimi, ularda komil insonni shakllantirish masalasi asosiy o`rinni egallaydi. Bu masalani hal etish ta'lim jarayonining tarbiyaviy tomonlariga, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga e'tiborni alohida kuchaytirishni talab etmoqda, bugungi kun tartibiga qo`ymoqda.

Aytish joizki, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga alohida e'tiborimizni qaratish, uni yanada xalq pedagogikasining asl durdonalari -dostonlari asosida mukammalroq o`rganishga bo`lgan hozirgi ilmdagi ehtiyoj va yuqorida tilga olingan holatlar biz tanlagan mavzuning nihoyatda dolzarb ekanligini tasdiqlay oladi, - deb hisoblaymiz.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Jahon xalqlari pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga nazar tashlasak, eng avvalo, axloqiy tarbiya jarayonining turli qirralarini tadqiq etgan ishlarga (dissertatsiyalar, o`quv qo`llanmalar va monografik tadqiqotlarga) duch kelamiz. Axloqiy tarbiyadek keng qamrovli jarayonning ma'lum bir tadqiqotlarini o`rganish esa ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo`lish mumkinligini tasdiqlaydi:

I guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni barcha o`quv jarayonida axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o`quv kurslarida uni shakllantirishga qaratilgan, mana shu tarbiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlardan foydalanishga bag`ishlangan va milliy tarbiya asoslari ishlab chiqilgan tadqiqotlar (bu o`rinda M.Ochilov, S.Ochilov, K.Hoshimov, Z.Mirtursunov, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.quronov, M.Inomova, S.Annamurodova, O.To`raev, O.Hasanboeva kabi ustoz olimlarimizning ishlarini nazarda tutamiz).

II guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni umumta'lim maktablarida o`quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish masalasiga bag`ishlangan tadqiqotlar (masalan, I.U.Mahkamov, T.qurbonov, H.N.Hamroeva, I.O.Ahmedov, M.I.Aslanov, S.O`rinboev, S.S.Mirsagatova, D.I.Abdullaev, Yu.U.Ismoilov, L.I.Rubinskiy, M.I.Borovskiylarning amalga oshirgan ishlarini ko`rsatish mumkin.)

III guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni oliy ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosini yoritgan tadqiqotlar (masalan, B.Gapirov, Z.X.qosimov, G.I.Mahmudova, S.M.Yo`ldosheva, R.Mamatqulova va boshqalarning ishlarini nazarda tutamiz).

IV guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan, bioenergetik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan hamda axloqiylik bilan inson salomatligi o`rtasidagi muayyan bog`liqliklarning mavjudligi aniqlangan tadqiqotlar (masalan, R.G.Skulachyov, B.V.Muxina, P.P.Pecherkun, K.P.Ivanov, A.V.Mologin, M.K.Hoshimova va boshqalarning amalga oshirgan ishlarini ko`rsatish mumkin).

Aytish joizki, bugungi kungacha amalga oshirgan barcha pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'naviy - axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari imkon qadar ishlab chiqilgan. Axloqiy tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar va unutilib ketilgan milliy an'analar, urf-odatlar bilan boyitishdek muhim vazifalar ham amalga oshirilgan. Buni isbotlashga va izohlashga zaruriyat yo`q, - deb o`ylaymiz.

Ammo ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga bag`ishlangan barcha pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida axloqiylikning mezonlari, ularning xalq pedagogikasidagi

o`rni va o`ziga xos xalqona talqini hanuzgacha o`rganilmagan, axloqiy fazilatlarning xalq og`zaki ijodi asarlarida, xususan, xalq dostonlaridagi pedagogik tadqiqotlar bugungi ilmning hayotiy zaruriyati sifatida tadqiq etilmagan.

Malakaviy bitiruv ishi (MBI ob'ekti va manbalarini tanlashning asoslanishi.

Birinchidan, axloqiy madaniyatning doimiy rivojlanishini har bir jamiyatda yashagan ijodkor xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, pedagogikasi, urf-odatleri, rasm-rusumlari, bir so`z bilan aytganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog`liq xulosalari xalq pedagogikasida, uning tarkibiy qismi sanalgan xalq dostonlarida o`z aksini to`liq topadi. Shuning uchun ham bunday asarlar avlodlarni kamolotga etkazuvchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblanadi. Ikkinchidan, bugungi kunda, ayniqsa, milliy istiqbol tufayli yangi qurilayotgan demokratik jamiyat zamondoshlarimizdan yangicha dunyoqarashni va yangicha fikrlashni, yangicha munosabat va yuksak axloqiylik mezonlariga rioya qilishni talab qilmoqda. Aslida, bularning tub o`zagi va zaminiiy asosi ijodkor xalqning milliy pedagogikasida, uning tarkibiy qismi sanalgan xalq og`zaki ijodi asarlarida o`z aksini va talqinini topgan.

Uchinchidan, bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda yuz berayotgan tub va yangi-yangi islohotlar, o`zgarishlarning hammasi yangi demokratik va adolatparvar davlatimizning ma'naviy rivojini, xususan, uning asosi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yanada yuqoriroq pog`onaga ko`tarilishini talab qilmoqda. Bu esa o`z-o`zidan yana milliy zamindagi tarbiyaga, milliy pedagogikamizning asl durdonalariga-folklor asarlariga qayta-qayta murojaat etishni talab qilmoqda. Ana shu holatlarni hisobga olib, xalq dostonlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini yuqorida ta'kidlagan yondashuvlar asosida baholi-qudrat tadqiq etishga jazm qildik.

Muammoni o`rganish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish maqsadida, xalq pedagogikasi va qadriyatlaridagi axloqiy tarbiyaga tegishli bilimlardan, xususan, dostonlardagi xalqona xulosalardan samarali foydalanish joiz, - deb topildi. Chunki, bu sohadagi ijodkor xalqning tugal va

sermazmun mulohazalari har bir o`quvchi-yoshlarda o`zligini anglashga, ajdodlar ruhiga mos tarzda tarbiyalanishiga va ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, komil inson bo`lib etishishiga asos bo`la oladi, - deb hisoblaymiz.

Ishni yozishda Fozil shoirning «Alpomish» va qodir baxshi Rahim o`g`lining «Alpomish» dostonlari pedagogik-filologik tahlil uchun asos qilib olindi.

MBI maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning bosh maqsadi o`zbek xalq dostonlari asosida o`quvchi-yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosining pedagogik asoslarini tadqiq qilishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarning echimini topishga baholi-qudrat harakat qildik:

- * Xalq dostonlari - folklarning boshqa namunalari qatori xalq pedagogikasining bevosita tarkibiy qismi ekanligini asoslash;

- * Bugungi kunda xalq og`zaki ijodi, xalq pedagogikasi va qadriyatlarining davlat maqomi darajasiga ko`tarilganligini ta'kidlash; ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bulardan foydalanishning samarali usul va uslublaridan foydalanish;

- * Mavzuga aloqador va tadqiqotimizning bevosita ob'ekti bo`lgan xalq dostonlari haqida, ularni saqlab qoluvchi baxshilar, baxshichilik maktablari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlarni berish va umumlashtirish;

- * O`quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida xalq dostonlarining ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini ko`rsatish, mana shu tarbiya bilan bog`liq bevosita etnopedagogik xulosalarni tavsiflash va izohlash;

- * Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, mundarijasini izohlash va tavsiflash; uni amalga oshirish tamoyillari, metodlari va vositalari haqida ma'lumot berish;

- * O`quvchi-yoshlarda shakllantirilishi lozim bo`lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga e'tiborni qaratish, ulardan xalq dostonlari asosida foydalanish tizimini ishlab chiqish; shuningdek, pedagogik-filologik talqinini baholi qudrat yoritish;

* Ijtimoiy sifatlarning eng asosiysi va yuqori cho`qqisi sanalgan vatanparvarlik tuyg`usi va tushunchasining, tarbiyasining xalq dostonlaridagi talqinini baholi qudrat ilmiy pedagogik tadqiq etish.

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi va metodi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to`g`risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», mustaqil davlatimiz rahbari I.A.Karimov asarlarida ilgariga surilgan ma'naviy-ahloq tarbiyasiga doir g`oyalar, milliy g`oya, Sharq mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash hamda ma'naviy axloqiy tarbiyalash hamda ma'naviy axloqiy tarbiyaga oid pedagogik qarashlari, hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlardagi kontseptsiyalar va pedagog olimlarimiz tomonidan bildirgan fikr-mulohazalar mazkur ishning metodologik asosini tashkil etadi.

MBIda qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik va tahliliy metodlar qo`llanildi.

MBIning ilmiy va amaliy ahamiyati. Malakaviy bitiruv ishining natijalari va ilmiy xulosalari o`zbek xalq pedagogikasini kompleks tadqiq etish uchun muhim bo`lgan nazariy xulosalarni beradi. Ishda har ikkala xalq baxshisining ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog`liq xulosalari va xalqona ma'naviy-ma'rifiy qarashlarga doir kuzatishlari baholi qudrat bayon qilinganki, aynan bunday holat baxshi-shoirlarning poetik mahoratlarining o`ziga xos qirralarini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Ishning tarkibi kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. XALQ DOSTONLARI – XALQ PEDAGOGIKASINING ASOSI VA TARKIBIY QISMI EKANLIGI

1.1. Folklor, doston va xalq pedagogikasi atamaları haqidagi ilmiy- nazariy tushunchalar, ularning mazmuni va ta'lim-tarbiyadagi o'ziga xos o'rni.

Dastlab «folklor» atamasining izohi, qo'llanish doirasi va o'ziga xos mazmun-mohiyati haqida to'xtaylik.

«Folklor» termini inglizcha (folk) - xalq va (lore) - donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. U birinchi marta 1846 yildan Vilyam Toms tomonidan ilgari surilgan. Shundan boshlab bu termin xalqaro miqyosda ilmiy taomilda o'zlashib ketdi. Shunga qaramay, Angliya va AqShda bu mavhum keng ma'noda xalq ijodiyotining barcha sohalarini - xalq poeziyasi, nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, o'ymakorlik, diniy e'tiqod va urf-odatlarini ifodalasa, O'rta Osiyoda jumladan, mustaqil O'zbekistonda esa, asosan, so'z san'ati, xalq og'zaki poetik ijodi tushunchasini ifodalaydi. Xalq musiqasi tushunchasi «musiqqa folklori», xalq san'atining boshqa turlari, chunonchi, o'ymakorlik (yog'och, ganj va mis o'ymakorligi), kulolchilik, zargarlik, zardo'zlik, kashta (pat)do'zlik singari xalq amaliy san'ati atamaları bilan ifodalanadi. Xalq raqsi san'ati xalq xoreografiyasi (grekcha sporeno-xor jo'rligida raqsga tushmoq va grapho - raqs harakatlarini maxsus belgilarda yozib olmoq) deb yuritiladi.

O'zbek folklorshunosligida «folklor» atamasi nisbatan keyinroq ilmiy iste'molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «xalq adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «og'zaki ijod» tarzida qo'llanildi. 1935 yilda X.Zaripov va Sh.Rajabiyning «O'zbek sovet folkloridan namunalar» kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur termin keng qo'llanila boshlandi va asta-sekin o'zbek folklori zahirida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi. X.Zaripovning oliy o'quv yurtlari uchun tuzgan ikki jildlik «O'zbek folklori» (1939, 1941) xrestomatiyasi nashr qilingach, u yanada barqarorlashtirildi.

O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, simpatiya va

antipatiyasi, orzu- intilishlarini aks ettiradi. Binobarin, folklorni maxsus fan sifatida oliy o`quv yurtlarida o`qitish hayotiy zaruriyat taqazosi tufayli amalga oshdi. Folklorni fan sifatida o`rganish harakati dastlab Angliya universitetlarida XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan edi. Rossiyada esa F.N.Buslaev va uning shogirdlari A.N.Veselovskiy, N.I.Storojenkolar tashabbusi bilan 1863 yili Moskva va Peterburg universitetlarida «Umumiy adabiyot tarixi» nomi ostida rus folklorini o`qitish yo`lga qo`yildi. O`zbek folklorini o`qitish tashabbusi esa XX asr boshlarida asosan, 30-yillarning o`rtalarida amalga oshdi.

Ibtidoiy kishilar hali yozuvni bilmagan zamonlarda o`z fikr mulohazalarini og`zaki bayon etganlar. Shu asnoda ularning og`zaki badiiy ijodi paydo bo`lgan. Binobarin, og`zaki ijodiyot o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan so`z san'ati bo`lib, uning barcha namunalari jonli ijro jarayonidagina yashaydi, shu sababdan ayrim janrlarda so`z va kuy omuxtaligi etakchi desak, ayrimlarida sahna san'ati elementlari ustun turadi.

Folklor - sinkretik xususiyatga ega bo`lib, xilma-xil san'at turlariga xos elementlarini o`ziga mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari so`z va kuy uyg`unligida ijro etiladi. Doston, termalarni do`mbira jo`rligida kuylash an'anaviy bo`lsa, qo`shiq dutor va childirma jo`rligida kuylanadi. Bir xil qo`shiqlar raqs bilan ijro etiladi. Aksariyat folklor asarlarda so`z etakchi o`rinni egallaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, lof, latifa, maqol va topishmoq janri shunday xarakterga ega. Xalq ertaklarida, xalq dramasida harakat va mimika, kuy g`oyaviy-badiiy mazmunini bir qator ahamiyat kasb etsa-da, baribir, so`z mazmuni ochuvchi asosiy vosita bo`limb qolaveradi. Bu folklorning so`z san'ati sifatidagi mohiyatini to`lato`kis tasdiqlaydi.

O`zbek folklorida juda keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri doston hisoblanadi. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik kabi ideallari bilan chambarchas bog`liqdir. Asriy kurashlari va ideallar uning tematikasi, g`oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

Gap o`zbek xalq dostonlari haqida borar ekan, dastlab «doston atamasining ilmiy-nazariy tushunchasini izohlaylik va so`ngra ilmdagi olimlar fikr-mulohazalariga e'tiborni qarataylik.

«Doston» so`zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqto'v ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og`zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi. Xalq og`zaki ijodida doston o`tmish zamonlar to`g`risida qahramonlik idealizatsiyasi ko`lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. Akademik V.M.Jirmunskiyning yanada aniqroq ifodasiga ko`ra «Epos- bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko`lamidagi jonli o`tmishdir. Uning ilmiy - tarixiy qimmatini, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir». Professor M.Saidovning ta'kidlashicha, doston murakkab san'at asari bo`lib, uning doston bo`lishi uchun adabiy matn musiqa bo`lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur.

Bu ta'riflarda qarama-qarshilik yo`q va biri ikkinchisini to`ldiradi. Birida dostonning epik voqelikka nisbati nazarda tutilsa, ikkinchisida folklorning spetsifikasi, dostonlarning sinkretik xarakteriga e'tibor beriladi. V.M.Jirmunskiy va X.T.Zaripovlarning ta'rifida xalq dostonlarining bosh xususiyati, M.Saidov nazarda tutgan adabiy matnning asosiy belgisi, ya'ni dostonlarning mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo`lishi va ular afsonaviy bahodirlar, ulug` shaxslar haqida epik idealizatsiya doirasida to`qilgan rivoyaviy asarlar ekanligi birinchi rejaga qo`yilgan. Bu ta'rifda dostonning o`tmish bilan, xalq tarixi bilan mahkam bog`liqligi ham o`ziga xos ravishda hisobga olingan. Chindan ham dostonlarda tarixni xalqona tushunish, uni jonlantirish mavjud. Ular xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning, etnik birlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan. Shunday qilib dostonlar haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan. Xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini va maishiy hayotini qomusiy bir tarzda ifodalangan o`tmish yodnomalaridir.

Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o`z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy-adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo`g`rilgan. Demak, dostonga epiklik, monumentallik xos bo`lib, kopmozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan, qahramonlik xarakteriga ega bo`lib, ular xalq idealidagi bahodir atorofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo`lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining tematik va janr xususiyatlari, uning o`ziga xos uslubi va shaklini belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog`liq bo`lgan yirik hajmli va keng ko`lamli poetik bayonida ko`tarinkilik, tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir.

O`zbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tdi. Uning eng qadimgi namunalar saqlanib qolmagan. XX asrdagina yozib olingan dostonlargina, bu janrning ko`p davrlar osha xalq baxshilari hofizasida og`zaki ravishda muayyan o`zgarishlar bilan bizgacha etib kelganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ularni xalq baxshilari faoliyatidan ajratib o`rganish mumkin emas.

Endi «Xalq pedagogikasi» atamasi, uning mazmun va mohiyati, ta'lim-tarbiyadagi o`ziga xos o`rni haqida qisqacha to`xtalaylik.

«Xalq pedagogikasi» tushunchasi nihoyatda qamrovi keng serqirra va serjilo tushuncha bo`lib, u yoki bu xalqning bevosita tarixini o`z ichiga oladi. O`zbek xalq pedagogikasi ham bevosita muqaddas sanalgan, ona yurt va xalqning butun tarixini o`zida mujassam etadi.

Yanada kengroq ta'riflasak: o`zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha jabhalarini, uning folklor, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslik kabi sohalarning etakchi g`oyalarini hamda yo`nalishlarini, xalqning ko`p asrlik diniy, axloqiy ta'limotlarini qamrab oladi. U ona xalqimizning asrlar davomida to`plangan boy, ijodiy merosiy

tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy va jismoniy etuklik sohalaridagi xulosa va qarashlarini ijodiy to'plangan tajribalarni qisqa, lo'nda, lekin mazmunli tarzda ifodalay oladi hamda keyingi avlodlarga og`zaki holda etkazadi.

O`zbek xalq og`zaki ijodi va uning rang-barang janrlariga mansub ming-minglab noyob asarlar milliy xalq pedagogikamiz asoslaridan, uning shakllanishidagi etakchi vositalaridan biridir. Bunday deyishimizning boisi shuki, xalqimizning milliy pedagogik qarashlari va an'analari, oilaviy maishiy hayoti, ta'lim-tarbiya sohasida fikr-mulohazalari, ibratli tajribalari va o`gitlarining hammasi uzoq asrlar davomida shakllangan, bizgacha og`zaki tarzda etib kelgan folklor asarlari sahifalarida o`z ifodasini to`liq topgan. O`zbek folklorining epik janriga mansub mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, tarixiy qo`shiq, terma boshqa asarlari; marosim va bolalar folklorining deyarli barcha janrlari, shuningdek, qo`shiqning hamma xillari kabi lirik janrlarga mansub asarlar; qolaversa, og`zaki drama, qo`g`irchoq o`yinlari va askiya janrlari bilan bog`liq dramatik turdagi barcha-barcha asarlar fikrimizga yorqin dalil bo`ladi. Ularning hammasida xalq pedagogikasining teran mazmun va mohiyati o`z ifodasini to`la topgan.

Qolaversa, o`zbek milliy-ommaviy bayram sayillarida, turfa xil rasm-rusumlarida, odatlari va udumlarida, an'analarda ijro etiladigan folklor asarlari ham xalq pedagogikasining dolzarb mavzularini yoritishga imkon qadar sodda, qisqa, milliy ruhda ifodalab berishga xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasi ham uning o`zak tarmog`i hisoblangan folklor asarlari uzoq tarixiy bosqichlarini boshidan kechirib kelmoqda. Har ikkalasining ham yoshlar tarbiyasidagi ta'sir kuchi nihoyatda katta va kuchli, ibratli jihati beqiyos. Buni biz ularning o`ta hayotiyligi, ta'sirchanligi, serqirraligi va serma'noligida ko`ramiz; ularni bevosita ijodkor xalq tomonidan jonli an'analarda ijro etilganida, yaratilganida guvoh bo`lamiz; eng muhimi, milliy ta'lim-tarbiyamizning eng dolzarb masalalarining echimini hal qilishga qaratilganligiga ishonch hosil qilamiz.

Shuning uchun ham xalq pedagogikasi asarlarida asosiy o`rinni egallagan inson odobi, ta'lim-tarbiyasida o`z izini qoldiruvchi milliy an'analar, ijodkor xalqimizning psixologiyasi bilan bog`liq maqsad va o`ylari, quvonch-shodliklari, g`am-g`ussalari, armonlari, milliy axloqiy qadriyatlari va qarashlarini o`z sahifalarida saqlagan. Shuning uchun ham buyuk meros sifatida yashab kelayotgan folklor asarlari alohida tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, hozirgi kunda tezlik bilan keng miqyosda ularni to`plash, o`rganish va baholi qudrat ilmiy tadqiq etish hozirgi zamon ilmining eng dolzarb vazifalaridan biri bo`la oladi.

1.2. Xalq dostonlari - avlodlarni kamolotga etaklovchi milliy tarbiya manbai

O`zbek xalq dostonlari xalqning hayoti, kurashi orzu-umidlari ifodasigina bo`lib qolmay, avlodlarni kamolotga etaklovchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblangan. Dostonlar o`z hatida milliy mafkura, milliy g`oya va milliy qadriyatlarimizni, xalqning baxtli yashash to`g`risidagi ideal orzu istaklarini ifodalagani sababli har bir avlod tomonidan qiziqib, ishtiyoq bilan tinglangan va har avlodning tafakkur dunyosi bilan boyitilgan holda keyingilariga asrab avaylab o`tkazilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Milliy tuyg`u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola o`z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi o`zida ifodalanadi. O`z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o`z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o`z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas».

Demak, o`z Vatanining jonkuyari bo`lgan haqiqiy insonni kamolga etkazish uchun biz uzoq asrlik milliy an'analarni o`rganishimiz va milliy hamda umuminsoniy g`oyalarni, qadriyatlarni bugungi avlod ongiga singdirishimiz darkor. Bu esa o`z-o`zidan xalq og`zaki badiiy ijodiga, xususan, eng yirik epik janr bo`lgan dostonlarga ham murojaat etishni taqoza qiladi.

Xalq dostonlarida, jumladan «Zaydinoy» da nasihatlar, nasihat duolar, nasihat olqishlar epik o`rin darajasiga ko`tarilgan va syujet rivojining asosini belgilaydi. Biz yuzlab nasihatlardan birginasini-ideal qahramon Go`ro`g`liga 40 chilton bergan nasihatnigina nazarda tutayapmiz. Chunki, 40 nasihat o`zbek xalq didaktikasining chinakam mag`zi bo`lib, insonning inson sifatida buyukligi, uning aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy kamolotga erishuvida nimalarga rioya qilish zarurligini asoslab ko`rsatuvchi yo`l-yo`riq va dasturdir. Xalq o`z o`gitlarini, pandlarini chiltonlar nomidan bayon qiladi. O`zbek xalq dostonlarining boshqa hech qaysisida odob-axloq haqida qarashlar bunday yig`ma, tushunarli, falsafiy teran va badiiy mukammal tarzda bir joyda berilmagan.

Ushbu nasihatlarning har birini bir saboq tarzida sharhlashga harakat qilish mumkin. Chunki bunday sharhlash kam vaqtni oladi va undan istagan dars (adabiyot, folklor, ona tili, tarix, huquqshunoslik, odobnoma va hatto aniq fanlarda ham)da foydalanish mumkin. Darsning kirish yoki xulosa qismida, zaruriyat tug`ilganda yangi materialni o`tishda 4-5 minut vaqtni ajratib bir to`rtlikni yod aytish yoki o`qib izohlash mumkin. To`rtlikni sharhlashni o`quvchilardan so`rash esa, ularning faolligini, qiziqishini oshiradi.

Har bir nasihatning ruboiy shaklda berilib borishi yoxud yozma adabiyot vakillari ijodidagi ayrim hikmatlar bilan aloqasini kuzatish ham yangi ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Biz uchun ushbu risolada yoritilishi lozim bo`lgan mavzu xalq qadriyatlari, xalq pedagogikasining qamrovi nihoyatda kengligi, unga tugal rioya etish komil inson bo`lib etishishining asosi ekanligini ta'kidlashdadir. Garchi u birgina yosh qahramonga aytilgan shunchaki maslahatlar, pandu-nasihatlar bo`lib tuyulsa-da, aslida avlodlarimiz tomonidan necha ming yillar davomida ishlab chiqilgan, hayotiy tajribalar, ruhiy va milliy xususiyatlarni o`zida jamlagan Odobnoma, Ibratnoma, Hikmatnoma saboqlaridir.

Muqaddas ilohiy kitobimiz. qur'oni karim suralarining 6 tasidagi 9 oyatda ota-onalarning ulug`ligi, ularni qadrlash takror-takror uqtiriladi. Jumladan, «Al-isro» surasining 23-24-oyatlarida aytilishicha, insonning birinchi vazifasi Allohga ibodat qilish bo`lsa, ikkinchi vazifasi, burchi ota-onaga yaxshilik qilishdir. Ota-ona

qaysi dinga, millatga mansubligidan qat'iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmatda bo'lishi, so'zlarini qaytarmasligi, ularga nisbatan yaxshi niyatda bo'lishlari shart. Chunki shu ulug' zotlar farzandning bu yorug' olamni ko'rishlari, yashashlari sababchisidir. Ota-onaga bo'lgan cheksiz muhabbat xalqimizning eng go'zal qadriyatlaridan biri darajasiga ko'tarilgan va asrlar davomida qon-qonimizga singgan. Har bir avlod ota-ona va farzandlar orasidagi ilohiy muhabbatni o'gitlar tarzida, shaxsiy namuna ko'rsatish asosida, badiiy ijod vositasida so'nggi avlodga singdirgan. Buni biz qodir baxshi Rahim o'g'lining «Zaydinoy» dostonida ham ko'ramiz:

Ota bilan yashar ushbu basharyat,

Farzand uchun ota oltin imorat.

Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir,

Ketgan bo'lsa qil qabrin ziyorat.---

deya chiltonlar yosh Go'rug'liga otaning ulug' insonligini, uni qadrlash, e'zozlash lozimligini uqtiradiki, to'rtlikdagi ma'no muqaddas kitobdagi ma'noga yaqin turadi. Zero, otalar bo'lmasa, bashariyat bo'lmaydi. Har bir farzand o'z otasini tengsiz xazina bilmog'i, uni zarracha xafa qilmasligi, ko'nglini qoldirmasligiga burchlidir. Garchi ota o'zgalar nazarida yomon bo'lsa-da, farzand uni hamisha yaxshi deb bilmog'i, hurmatini joyiga qo'ymog'i shartdir. Chunki o'zganing yaxshi otasi emas, o'zining yomon otasi dunyoga kelishiga, o'nib-o'sishiga, hayotdan zavqlanishiga sabab bo'lgan.

Farzand uchun ota qanchalar ulug' bo'lsa, vujudida o'stirib dunyo keltirgan, oq sut berib tarbiyalagan ona yanada buyukdir, e'zozga loyiqdir. Shu taburruk zotning mehri, muhabbati, fidoiyligi, qanchadan-qancha uyqusiz tunlarda tortgan cheksiz tashvishlari evaziga farzand kamolotga erishadi. Shuni uchun ham qodir baxshi Rahim o'zining «Zaydinoy» dostonida alohida uqtiradi:

Ona ko'rsatadi jahon yuzini,

Oltin bit har bir aytgan so'zini,

Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh,

Tavob ayla bosib ketgan izini.

Ota-ona haqida bu quyma misralar ulug' bobomiz hazrati Alisher Navoiy fikrlariga hamohangdir. Ammo xalqda davomiylik kuchliroq. Ya'ni farzandning ota-ona oldidagi burchi ularni tiriklik paytidagina e'zozlash emas, balki vafotidan so'ng ham har qachon bosgan izlarini tavob aylab, qabrini tez-tez ziyorat qilib, duo bilan yodlab turmoq shart.

Inson shunday yaralganki, uning har bir a'zosi yashash omili bo'lish, ma'lum belgilangan vazifani bajarish, o'zaro aloqalarni, ijtimoiy munosabatlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Gap har kim o'z a'zolarini aql-idrok bilan ishlatisida. Aql-idrok, qobiliyat, talant faqat irsiy xususiyat bo'lmay, olingan tarbiyaga ham bog'liqdir. Go'daklikdan to'g'ri tarbiya olgan inson xalq ma'qullaydigan axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi, el va yurt manfaati uchun xizmat qiladi.

Aynan shu holat milliy urf-odatlarimizdan biri sifatida, go'zal qadriyatlarimizning eng sarasi sifatida qadrlanadi, ayni paytda, hozirgi yoshlarga ibrat-namuna ham bo'la oladi.

II BOB. «ALPOMISH» DOSTONIDA MILLIY TARBIYAMIZNING ASOSLARI VA PEDAGOGIK TAMOYILLARI

2.1. «Alpomish» dostonida islomiy qarashlarning pedagogik-didaktik talqini

Xalq og`zaki ijodida yoshlarni tarbiyalash, yurtning tarixidagi muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabat bildirish hamisha dolzarb mavzu hisoblangan. Adolatparvarlik, halollik, iqtisodiy jihatdan qiynalgan insonlarni qo`llab-quvvatlash og`zaki ijodda ustuvor yo`nalishlarni tashkil etgan. Mehnatkash omma tasavvurida yurtni boshqaruvchi shaxs taxtga o`tirishdan avval o`zining bir necha fazilatlarini namoyish etishi zarur bo`lgan. Xususan, adolatparvarligi, yurtni chet el bosqinchilaridan himoya qila olishi, kambag`al odamlarning hayotidan xabardor bo`lishi shular jumlasidandir. Taxtga o`tirish qonun-qoidalari ham ma'lum an'anaga bog`liq edi. Ulardan birinchisi, bo`lg`usi taxt nomzodining adolatli podshoh vorislaridan ekanligi, ikkinchisi, kelib chiqishi jihatidan mehnatkash oilaga mansub bo`lgani holda o`zini yurtboshilik iqtidoriga ega ekanligini namoyish etishi, uchinchisi, davlat qushi uchirilganda uning boshiga kelib qo`nishi, to`rtinchisi, aqli, zehni, botirligi, mardligi bilan o`g`il farzandi yo`q podshohning qiziga uylanishi va hokazolar. Ertak va dostonlarimizda xalq hech qachon yurtni boshqarish vazifasini tasodifiy odamga yoki adolatsiz, nopok shaxsga ko`r-ko`rona topshirgan emas.

Epik asarlarning salmoqli qismida, albatta, podshoh, xon, amir, hokim kabi obrazlar mavjud. Ular ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga o`z munosabatlarini bildirib hurmat topadilar yoki omma qarq`ishiga duchor bo`ladilar. Biz doston va ertaklarda, bir tomondan, butun xalqning biror kimsaga toj-taxtga o`tirishni iltimos qilish holatini, ikkinchi tomondan, podshohning xalq qahriga uchrab jazolanishini ko`ramiz. Har ikki holatda ham taxtning egallanishi parvardigorning amri, xalqning xohishi bilan amalga oshiriladi. Shunday asarlar borki, ularda davlatni boshqaruvchi shaxs jazolanadi, halok bo`ladi. Bundan ko`rinadiki, muayyan vaziyatda xalq istagining ijobat bo`lishini ko`rish mumkin. Go`ro`g`li qirq yigiti bilan Chambil shahriga asos soldi. Chambildagi siyosiy va maishiy hayot

Go`ro`g`lining davlatni boshqarish iqtidoriga bog`liq bo`ldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, qishloqlardagi adolattalab yigitlar Go`ro`g`lini hayotda bor deb o`ylagan va uning xizmatiga o`tish uchun yashab turgan joylarini tashlab ketganlar. Ularning fikricha, Go`ro`g`li mehnatkash xalq qadriga etuvchi adolatli hukmdor bo`lgan. Unda xalqning qasosini olish fazilati ham zarur paytlarda ko`zga tashlangan. Yurtimizning turli viloyatlaridan o`tmishda xalq qasoskorlari sifatida otilib chiqqan Namoz, Niyoz kabi xalq qasoskorlari bunga asos bo`lgan. Biz bildirayotgan mulohazalar Turkiston o`lkasida feodal jamiyati vujudga kelgan, davlat tushunchasi barqaror bo`lgan davrga mansubdir. Agar biz xalqimiz og`zaki ijodidagi ertak va dostonlarni e'tibor berib o`rgansak, hayotda jamiyat tushunchasi etarli darajada qarop topmagan zamonlar haqida ham hikoya qiluvchi asarlar mavjud ekanligini ko`ramiz. "Alpomish" dostoni, bizningcha, ana shunday san'at namunalaridan biridir. Professor M. Saidov o`zining «O`zbek dostonchiligida badiiy mahorat» asarida birinchi marta bu haqda o`z fikrlarini bayon etgan.

U shunday deydi: «..."Alpomish"da o`zbek xalqining qabilachilikdan feodalizmga ko`chish, feodalizmning dastlabki kunlari tasvir etilganini ko`ramiz»¹. Haqiqatan ham, «Alpomish» dostonida ziyrak tinglovchi, kitobxon Hakimbekning Boysin, qo`ng`irot yurtiga birinchi podshohlik qilganiga amin bo`ladi. Dostonning dastlabki qismida Dobonbiy, Alpinbiy degan yurt boshqaruvchilarining nomlari zikr etilgan. Shuningdek, «Boysari boy edi, Boybo`risi shoy edi» (14-6.), deyiladi. Ayni choqda shoy so`ziga «shoh» deb izoh beriladi. Bizningcha, mazkur izoh dostonida aks ettirilgan xalq hayotini belgilovchi davlat tuzumining ma'muriy jihatlarini aniq ifodalamaydi. Buni quyidagicha mulohazalar bilan isbotlash mumkin deb o`ylaymiz:

Boybo`ri qo`ng`irot elining shohi bo`lsa, har qanday sharoitda ham to`yga kelganida unga bo`lgan munosabat dostonida ifodalangani kabi bu qadar yomon darajaga etmas edi.

Boybo`ri podshoh sifatida o`z yurtidagi fuqarosidan zakot talab qilishiga haqlidir. Binobarin, Boysari zakot berishdan bosh tortishi mumkin emas. Boysari zakot to`lashdan bosh tortib qalmoq yurtiga ko`chib ketar ekan, u zakotni

o`tmishdan qaror topib kelayotgan tartibga nisbatan adolatsizlik deb tushungani uchun unga qarshi bosh ko`targan hisoblanadi. Xalq dostonlarida esa bunday harakat, asosan, taqdirlangan. Dostondagi Boysarining fojiali taqdiri biz qayd etgan an'anaga mos kelmaydi.

«Shoy» so`zi. «Alpomish» dostonida Surxayil mastonga nisbatan ham qo`llanilgan. Shuningdek, dostonda Boysarining qalmoq elidagi mavqeini ham bir necha marta «shoy» so`zi bilan berilganini ko`ramiz: «Boysari ham yurtning shoyi» (194-6.).

Ma'lum bo`ladiki, «shoy» so`zi nashrda qayd etilganidek «shoh»ni emas, el orasida katta obro`ga ega bo`lgan nufuzli odam tushunchasini anglatadi. Professor M. Saidov «O`zbek dostonchiligida badiiy mahorat» risolasida Hakimbekning qo`ng`irot yurtida birinchn marta davlat tuzumini vujudga keltirish harakatini amalga oshirgani haqida ko`plab dalillarga murojaat etgan. Bizningcha, (Hakimbekning davlatni boshqarish siyosati haqida fikr yuritar zkanmiz, bu mulohazalarni nazarda tutmasligimiz mumkin emas.

«Alpomish» dostonida davlatni boshqarish, mamlakatda istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan samarali munosabatda bo`lish, davlatning iqtisodiy va siyosiy mavqeini ko`tarishga intilish kabi siyosiy masalalar dostonda ko`p marta o`z ifodasini topgan. Ularning ayrimlariga murojaat etamiz.

«Alpomish» dostonining birinchi qismida qo`ng`irot yurtidan qalmoqlar eliga boshpana izlab kelgan Boysari boshliq o`n ming uyli jamoa, bu yurtdagi ekilgan bug`doylarni payhon qilib, ot-uloviga edirib» yuboradi. Bunday jinoyatni jazosiz qoldirmaslik uchun qalmoq elining podshohi Toychixon farmoniga binoan Boysari uning huzuriga keltiriladi. Boysarining kim ekanligini, uning iqtisodiy ahvoli qay darajadiligini bilgan Toychixon Boysarini jazolamaydi. qalmoqlarning bug`doy hosili evaziga beradigan soliqlaridan ham voz kechadi. Ko`chib kelgan qo`ng`irot eli odamlarini etti yil davomida har qanday soliqlardan ozod etadi. Ayrim kitobxonlar bu qarorlarni Toychixonning muruvvatli, adolatli podshoh ekanligini ko`rsatuvchi dalil sifatida qabul qiladilar. Aslini olganda Toychixon qarorini o`ta murakkab vaziyatni hisobga olgan tajribali, tadbirkor podshohdan

kutish mumkin edi. Toychixon kitobxon o`ylaganchalik sodda, muruvvatli shoh emas edi. U katta hayot tajribasini to`plagan ustomon shaxs sifatida harakat qiladi. Bu erda gap Toychixonning Boysari bilan o`n ming uyli jamoa ham kelganini baholay olishidadir. Ma'lumki davlatning mavqei aholining soni, iqtisodiy imkoniyati bilan bog`liq. qo`ng`irot elidan kelgan jamoa qalmoqlar yurtining iqtisodiy, siyosiy quvvatini beqiyos ko`tarib yuborgan edi. qo`ng`irotliklarning ko`chib kelishi kelajakda Toychixonning mavqeini juda oshirib yuborar edi. Davlatining boyligi ko`payganligini to`g`ri hisoblab chiqqan Toychixon hamma soliqlardan aholini ozod etgan edi. Toychixonning haqiqiy niyati Hakimbek tomonidan qo`ng`irot elini o`z yurtiga ko`chirib olib ketilayotgan paytda ravshan namoyon bo`ladi. Toychixon endi Alpomish bosh ko`chib ketayotgan elni qalmoqlar yurtida olib qolish uchun lashkar yuboradi. Chunki u qo`g`irotliklardek boy jamoaning o`z tasarrufidan chiqishi davlatining mavqeini pasayishiga olib kelishini to`g`ri anglab etgan edi.

Davlatni boshqaruvchi rahbarning asosiy fazilatlaridan biri aytilgan so`zga egalikdir. Xalq hech qachon so`zida turmaydigan, fikridan tez qaytadigan davlat boshqaruvchisini yurtboshi sifatida hurmat qilmaydi. «Alpomish» dostonida bu mahorat bilan o`z ifodasini topadi. Hakimbek Boybo`rining umr bo`yi intiqlik bilan kutgan farzandidir. Odatda bunday farzandning dunyoga kelishi mamlakat va xalq hayotida keskin o`zgarishlarni taqazo etadi. Hakimbek qo`ng`irot yurtining taqdirida davlat tashkil qiluvchi arbob sifatida namoyon bo`ladi. U ilmi bo`lgani uchun zakot tushunchasini topadi. Zakot esa professor M. Saidov fikricha davlat vujudga kelishidagi dastlabki belgi edi. Hakimbek o`z rejasini amalga oshirish uchun qalmoq yurtiga ko`chgan o`n ming uyli hamyurtlarini qo`ng`irotga qaytarib kelishga qaror qiladi. Barchinga uylanish ham qonuniy jihatdan Hakimbekka Boysariga qarashli yurt qismini egallash imkonini berar edi. Shunday qilib, ko`chib ketgan jamoani qaytarish bir tomondan Hakimbekka yurtning haqiqiy egasi bo`lishi uchun ma'naviy huquqni beradi. Ikkinchi tomondan Barchinga uylanish Boysari eliga vorislik qilish imkonini yaratadi.

Dostonda podshoh bo`luvchi shaxsning jismoniy jihatdan ham bir qator talablarga javob berishi lozimligini ifodalovchi tushuncha ham bor. Bu tushuncha Barchin shartlarini amalga oshirishda aniq seziladi.

«Alpomish» dostonida yurtga boshchilik qilish huquqiga ega bo`lgan shaxsga nisbatan xalqning alohida hurmatda bo`lishi ta'kidlanadi. Alpomish etti yillik zindon azobidan qutulganidan so`ng Toychixon va uning lashkarini engadi. Uning oldida qalmoqlar yurtiga kimni podshoh qilib qo`yish masalasi ko`ndalang bo`lib turadi. Xalq ijodkorlari dostonida ana shunday murakkab vaziyatni aks ettirish bilan ham o`zlarining naqadar etuk siyosatdon ekanliklarini ko`rsata olganlar. Chunki Alpomishning o`zi bu yurtga podshohlik qila olmas edi. Uni Ultontoz hukmronligi ostida ezilayotgan qo`ng`irotliklar kutar edilar. Ayni paytda qalmoq yurtidan ham davlatni boshqara oladigan bironta odam topilmaydi. Shunday vaziyatda kitobxon e'tiborini Kayqubod o`ziga jalb etadi. Xalq salohiyatiga shuning uchun ham tasannolar aytishga majbur bo`lasanki, qalmoq yurtiga Alpomishdan oldin Toychixonning qizi Tavka oyim ta'rifini eshitib kelgan Kayqubod taxtga o`tirish sharafiga muyassar bo`ladi. Bu ishni amalga oshirishda ayrim to`siqlar bor edi. Birinchidan, Kayqubod qo`ng`irot elining farzandi. Agar u zo`rlilik bilan Toychixon taxtini egallasa, dostonida bosqinchilik siyosati amalga oshgan bo`lar edi. Bundan tashqari Kayqubod el orasida aql va jismoniy quvvat jihatdan tan olinib, - tilga tushgan emasdi. Ikkinchidan, Kayqubod ko`p yillardan buyon cho`ponlik bilan kun ko`rib yurgan oddiy bir xizmatkor edi. Uni to`g`ridan-to`g`ri taxtga o`tqazish ma'naviy huquqsiz odamni podshoh qilish bilan teng bo`lard. Uchinchidan, Alpomish zindondan qutulib chiqsa, Tavka oyimga uylanish va'dasini bergan edi. Xullas, bu to`siqlar Alpomishning tadbirkorlik bilan ish ko`rishini taqazo etardi. Alpomish bu muammolarni zudlik bilan ham oqilona, ham samarali hal qilish yo`lini topadi. Jumladan, Kayqubodning boshiga yopishtirilgan qo`yning oshqozoni ivitilib, yuvib tashlanganidan so`ng u kelishgan yigitga aylanadi. Tavka oyim o`z ixtiyori bilan Alpomishdan uni afzal ko`radi, unga turmushga chiqish istagini bildiradi. Kayqubod Tavka oyimga uylanadi. Endi u Tavka oyimning eri sifatida qalmoqlar mamlakatining podshohi bo`lishi mumkin

edi. Undan tashqari, Alpomish o`ylab topgan tadbirga binoan Kayqubod atayin Alpomishni badnom qiladi. U do`q-po`pisalar bilan el oldida Alpomishni qo`rqitadi. Atrofdagi odamlar Kayqubodning Alpomishdan baquvvat ekanligiga guvoh bo`ladilar. Bu siyosat Alpomish tomonidan o`ylab topilgan hiyla edi. Shunday qilib, Kayqubod Alpomishni jismoniy jihatdan "engadi" va podshohlik qilishga loyiq ekanini ko`rsatadi. Bu echim dostonning dastlabki qismidayoq rejalashtirilgan edi. Asar oxirida ana shu reja ustalik bilan joriy etilgach, qalmoqlar yurtiga Kayquboddan boshqa odamning shohlik qilishiga imkon qolmaydi. Demak, dostonning boshlanish qismidagi reja o`zining echimini topadi. Alpomish qalmoqlarning Kayqubodga to`liq bo`ysunishini ta'minlaydi. Bu bilan Toychixon elining endilikda Alpomishga qarashli ekanini ham asoslaydi.

Fozil Yo`ldosh o`g`li dostonda davlat boshlig`i tomonidan maxsus tayinlangan odam savdo-sotiq ishlarini muttasil nazorat qilishi lozimligini ham unutmagan. Ma'lumki, Sharq mamlakatlarida bozor el-yurtning rizq-ro`zi, tomir qoni bilan teng ko`rilgan. «Tekin bozor bor joyda hamisha qalloblik, xiyonat, aholini aldash niyatida yuruvchilar bo`ladi. Toychixon yurtida podshohning qizi Tavka oyim yangi bozordagi savdoni boshqaradi. Bu muhim vazifani bajarishda unga yonidagi qirq kanizi yordam beradi. Ularning har biri alohida o`z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajaradi. Bozordagi tarozilarning toshini nazorat qilish, toshi engil chiqqan qassoblarning ta'zirini berish, bo`yi va eniga o`lchanadigan mollarning qalamisini - hozirgi kun tushunchasi bilan metrini tekshirish, o`lchovdan kam kelganiga chora ko`rish, qo`y bozorlaridagi ahvol bilan tanishish haqidagi lavhalar go`yo «Alpomish»ning bu masalalarga bugungi kun talablari bilan yondashgandek tuyg`uni hosil qiladi.

Baxshi odatda biron fikrni o`z holicha, shunchaki istak bilan dostonga kiritmaydi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ijrochi hamisha atrofdagi tinglovchilarning ruhini, istagi va hohishini hisobga olib borgan. Shuning uchun hech ikkilanmay aytish mumkinki, yo doston yozib olingan davrda bozordagi oldi-sottilar jarayonida ko`p kamchiliklar ro`y bergan, yoki doston aytilgan hududda bozorni nazorat qilishga ehtiyoj sezilgan. Hatto, dostonning ijrosi davomida bozor-

ni nazorat qilishga mas'ul shaxsning tinglovchilar orasida bor ekanini ham taxmin qilish mumkin. Har holda bozorni tekshirish lavhasi kabi o'ta hayotiy voqealarning doston mazmunidan o'rin olishi tasodifiy emas. Bu lavha bilan davlatniig yana bir vazifasi: o'z tasarrufidagi hududlarda bozorlarni doimiy nazorat ostida tutish lozimligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga Tavka oyimning bozordagi munosabatlarga boshchilik qilishi asarni o'rganadigan mutaxassislarning e'tiborini boshqa jihatdan ham o'ziga jalb qilib kelmoqda. Gap shundaki, Alpomishning yurti Boysin, qo'ng'iroq deb ataladi. O'zbek nomi bilan ataluvchi xalq shu erlarda istiqomat qiladi. qalmoqlar, yurti olti oylik yo'l narida joylashgan bo'lib, u erlardagi hayot tarzi doston mazmuniga ko'ra dasht odamlarini eslatishi kerak. Dostonda o'zbekning odatlari, rasm-rusmlari, kiyinishi, o'tovlarni bezashi qayta-qayta tilga olinadi va shu yo'l bilan turmush darajasining yuqoriroq ekani ta'kidlangandek bo'ladi. Ammo bu fikrga qarama-qarshi mulohaza yuritish uchun ham asoslar yo'q emas. Biz bilamizki, o'troq hayot kechirish, ekin ekish va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lish ko'chmanchilikdan ma'lum darajada yuqori turadi. Dostonning birinchi qismida Boysari odamlari Toychixon yurtidagi ekin-tikinlarni tabiiy o'sayotgan o't hisoblab chorvasiga edirib yuborish voqeasi Boysin, qo'ng'iroq elining turmush darajasiga aniqlik kiritishni taqazo qiladi.

Shuningdek, dostonda qalmoqlar yurtidagi podshohning davlatni aniq boshqarish usullari to'liq ifodalangan. Bu elda soliq olinadi. Soliqning hajmi va miqdori bor. Ammo Boysin elida hali bunday tushunchalar aniq shakllanmagan. qolaversa, biz yuqorida qayd etganimiz bozorni boshqarish haqidagi fikrlarni boysinliklarga tatbiq etish ham ortiqchadek tuyuladi. Bular xususida tinglovchi to'liq va atroflicha fikr yuritib, doston tasvirlariga hayron bo'lishi mumkin. Dostonda o'zbeklar bilan qalmoqlar turmushining bu tarzda belgilanishi xalq ijodidagi shartlilik natijasidir.

Mazkur lavha ko'chmanchi o'zbeklarning qo'shni o'troq xalq bilan qadimdan ijtimoiy, maishiy munosabatda bo'lganligini tasdiqlaydi.

Hech bir xalq boshqalardan o'zini kam bilmaydi, balki imkon boricha ustunligini ta'kidlashga urinadi. Shundan bo'lsa kerak, dostonchi o'troq xalq bilan muomala haqida hikoya qilganida boysinliklar turmush tarzini kamsitmaslik yo'lini tanlaydi. Kezi kelganda «qalmoq» so'ziga urg'u berib, «o'zbek»ni ustun qo'yadi. Buning ustiga dostonni ijro etayotgan davrda o'troq xalq bilan yonma-yon aralash yashayotganini, tinglovchilar orasida ularning vakillari ham ishtirok etishini e'tibordan soqit qilmaydi. Shu sababli ham dostonchilar o'troq turmush tarziga ega bo'lgan xalqni Boysin, qo'ng'iroq elining eski g'animi qalmoq nomi bilan atagan. Har holda bu muammoning haligacha to'liq hal etilmaganini ko'rsatib o'tish lozim.

Bizningcha, dostondagi davlatni boshqarish siyosati asarning so'nggi qismida alohida o'rin egallagan. Ma'lumki, xalqimiz tarixidagi juda ko'p ko'ngilsiz voqealar podshohlarning atroflaridagi egri ko'ngilli odamlar g'iybatlariga quloq solishlari oqibatida ro'y bergan. O'z paytida Alisher Navoiy ham quyidagi baytni bejiz yozmagan bo'lsa kerak:

Shoh yonin farzin kibi kajlar maqom etmish ne tong,

Rostravlar farsadni gar tutsalar ruhdek qiroq.

Buyuk shoirimiz bu baytda podshohlar yonini harom ishlar bilan mashg'ul bo'lgan, turli noto'g'ri yo'llar bilan kun ko'ruvchi farzin kabi odamlarning egallab olganidan ajablanish kerak emasligini, shohlar hamisha oqil va haqiqatparvar odamlarni shaxmat taxtasidagi ruh kabi uzoqda tutishini o'ta go'zal ko'rinishda ifoda etgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan doston nusxasida davlatni boshqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan shaxs o'z yurtida ro'y berayotgan har bir voqea, hodisadan shaxsan o'zi xabardor bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Munofiq odamlarni birovning etkazgan xabariga qarab emas, o'zi ishonib komil bo'lgan dalil asosida jazolash kerakligi uqtiriladi. Alpomish etti yil zindonda yotganidan so'ng qo'ng'irotda ro'y bergan ko'ngilsiz o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rishi zaruratini his qiladi. Etti yil muddat davomida singlisi qaldirg'och, do'sti qorajon, xotini Barchinoy, otasi, onasi va boshqa yaqinlari xo'rlangan edilar. Alpomish tarafidagi odamlardan birontasi Ultontoz zulmidan qochib qutulolgan emasdi. Shu

bois Ultontoz bilan Barchin to'yi ustiga etib kelgan bo'lishiga qaramay, do'st va dushmani aniq ajratib olish uchun qultoy qiyofasida to'yga kirib boradi. Hatto, to'yda Ultontozning onasi Bodom bikach bilan aytishuvga kirishadi. Yodgorning haqoratlanishiga, Barchinoyning o'z hohishiga qarshi holda turmushga chiqayotganiga, atrofdagi odamlarning zo'rlik bilan yurtni boshqarish huquqini tortib olgan Ultontozga bo'lgan munosabatiga o'zi guvoh bo'ladi. Ana shundan so'ng o'zining kim ekanligini to'y ishtirokchilariga tanitadi. Haqiqatning g'alaba qilishiga qo'ng'iroqliklarnigina emas doston tinglovchilarini ham ishontiradi.

Xalq ijodkorlari Alpomishning to'yga ketaverish yo'lida va to'yxonada fe'l-atvor jihatdan tamomila boshqa odam qilib ko'rsatish ustida jiddiy harakat qilganini his etish qiyin emas. Biz bu o'rinda Alpomishning to'yga ketayotgan xotinlar tugunlaridagi somsalarni boshqa narsalar bilan alishtirib qo'yganligini, o'zini aqliy jihatdan zaif odam qilib ko'rsatishga uringanini, to'yda qultoy qiyofasida odamlarni kuldirganini nazarda tutamiz. Eng muhimi, Alpomish bu lavhalarda davlatni boshqarish yurtboshidan juda ko'p tadbirkorlikni talab qilishini, u aqliy, jismoniy jihatdan mukammal inson bo'lishi kerakligini ta'kidlagandek tuyuladi. Agar «Alpomish» dostonini eshitishda o'tmishda xonlikning Buxoro, Samarkand, qashqadaryo, Surxondaryo atrofidagi hukmdor va amaldorlari ham qatnashganliklarini nazarda tutsak, bunday lavhalarning hayotiylikini, juda muhim amaliy-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini tushunib olamiz.

Shunday qilib, «Alpomish» dostonida podshohlar amal qilishi lozim bo'lgan juda ko'p muammolar o'z ifodasini topgan va o'ziga xos go'zal echimlar bilan xalqqa taqdim etilgan. Bunday lavhalar dostonning hayotiy ahamiyatini oshirishda, unga nisbatan qiziqish darajasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

2.2. Dostonda davlatni boshqarish tizimining talqini

Uzoq o'tmish zamonlardan inson xatti-harakatlarini boshqarishda diniy e'tiqodlar hamisha etakchi vazifani bajargan. Turon elida hukm surgan

zardo`shiylik dinining odob-axloq qoidalari «Avesto»da o`z ifodasini topgan edi. Xususan, mazkur kitobda qayd etilishicha, inson axloqi yaxshi va yomon xulq-odatlarining kurashuvidan iborat bo`lgan. Tabiiyki, u zamonlarda ham ruhiy tarbiya o`sha davr nuqtai nazaridan barkamol inson tushunchasining ajralmastar-kibiy qismi hisoblangan va u paytlarda ham ijobiy e`tiqod o`zaro hurmat mezonini tashkil etgan. «Alpomish» dostonida qahramonimizning o`tda yonmas, qilich o`tmas kabi xususiyatlarining zamini aynan o`sha uzoq o`tmish zamonlarga borib taqaladi. Hakimbekning Jyyo-moniy baquvvatligi esa Kayumars, Jamshid kabi af-sonaviy jihatlariga ega. Bu xalq orzusining hosila-sidir. qadimgi tarixchilar: Gerodot, Strabon, Klavdiy Elian Araks (Amu daryo) bo`yida. yashovchi massa-getlar, sug`dlar, saklar (bizning ajdodlar) otda va piyoda jang olib borishga juda mohir ekanliklarini ta`kidlaganlar. O`rta Osiyoda islom dini keng tarqalib turkiy xalqlar ichida qaror topa borishi natijasi islomiy qarashlar «Alpomish»da ham o`z aksini topdi. «Iymon» tushunchasi insonning ma`naviy qiyofa-sini, insonligini belgilash omiliga aylandi. Ehti-mol, shuning uchun ham biron kimsa o`zbekni iymonsiz desa bundan ortiq haqarat bo`lmas.

Aslini olganda iymon inonmoq, ishonmoq, e`tiqod qilmoq ma`nosini akglatuvchi so`zdir. Islomiy iymon, tushunchasiga ko`ra, Ollohning haqligiga, uning payg`am-barlari va ularning so`zlariga, Olloh buyurgan ishlar-ni bajarishga butun qalbi va amali bilan o`zini ba-g`ishlagan inson iymonli hisoblangan. Iymon— ruhiy poklikni, ma`naviy mukammallikni, e`tiqodiy halollikni talab etuvchi mezon. Vatanparvarlik, xalqparvarlik, o`z baxtini halol mehnatdan topish hamana shu mezon bilan o`lchanadi. Xalq og`zaki ijodi xalq ommasini, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida muhim omillardan bo`lib kelgan. Shu bois og`zaki ijod xazinasidagi asarlar qahramonlarining ijobiy xos salbiyligi ana, shu o`lchov bilan o`lchangan.

Ayni choqda shuni ham ta`kidlash lozimki, mehnat-kash xalqning islom dinidagi qonun-qoidalarga bo`lgan munosabatida o`ziga xos samimiyat va amaliyot ham aniq ko`zga tashlanadi. Islomdagi halollik, poklik, biron-ning haqiga xiyonat qilmaslik, ota-onaga hurmat, o`z mehnati bilan kun ko`rish va boshqa talablar har bir insonning-ma`naviy qiyofasini boyitgan, oliy tarbiya mezonlariga moe kelgan.

Katta yoshdagi hayot tajribasiga ega qariyalar ham o'z pand-nasihatlarini shariat tariqatlari asosida amalga oshirganlar. Ammo haddan tashqari diniy tushunchalarga berilib hayotiy yumushlardan voz kechishni yoqlamaganlar. O'z hatti-harakatyaari bilan odamlar o'rtasida obro' va hurmat-ga ega bo'lishning ustuvor yo'lini mehnatda deb bilganlar. «Xudoga ishonib och qolma», «Sendan harakatg` mendan barakat», «qo'l qo'lni bilar, shariat yo'lni» kabi xalq maqollarining yaratilishi bejiz emas. Ularda inson hayotiy vaziyatlarini hushyorlik bilan baholash qobiliyatiga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Xalq baxshilarining falsafiy dunyoqarashlaridam ana shu tamoyillarga asoslanadi. Dostonlarda qahramon fe'l-atvoriga ijobiy baho berishning bosh o'lchovi, avvalo, insoniy fazilatlar bilan belgilanadi. El-yurt tashvishini o'ylagan farzandlar: Alpomish, Go'ro'g'li, Avazxon, Hasanxon, kabi el hurmatiga eazovor bo'ladilar.

«Alpomish» dostonining bosh qahramoni Hakimbek, qolaversa, uning atrofidagi qaldirg'och va Barchinoy, keyinchadik, Kayqubod va qorajonlar aynai ana' shu jihatdan tinglovchi (yoki o'quvchi)ning mehrini qozonadi. «Alpomish» dostonini ijro etgan baxshilar qur'oni karimni yod olgan qori bo'lmaganlar. Ular shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlariniham alohida maxsus o'rganmaganlar. Ammo ularning tarbiya ko'rgan muhitlarida islomiy mafkura etakchi o'rinni egallagan. Sho'rolar davrida islomiy e'tiqodlarini) ochiq bildirmay, murosasozlik qilgan bo'lsalar-da hayot-larida unga qat'iy amal qilib kelganlar. Chunki 30-yillarda hokim mafkura yo'rig'iga yurmagan baxshilar boshqa yozuvchi va shoirlar singari qatag'onga uchragan., Bunga Xorazmda o'z iste'dodi bilan kattashuh-ratga ega bo'lgan bolsheviklar siyosati qurboni Amat baxshi taqdiri misol bo'la oladi. Shubhasiz, «Alpomish» mazmunining chuqur zaminidagi lavhalar islom dini turkiy xalqlar yashaydigan hududlarga etib kelmas-dan avval ham mavjud edi. Ammo islom dinining O'rta Osiyo, Volga bo'yida yashovchi xalqlar tomonidan qabul qilinishi doston mazmuniga, syujeti va kompozi-tsiyasiga o'sha davrning hukmron mafkurasi sifatida bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, dostonning is-lomga iymon keltirgan baxshilar, shoirlar, ijodkor va ijrochilar tomonidan aytilishi

«Alpomish»nidini islomga yaqinlashtirgan, islomiy ta'limotni unga singdirib borgan. Bu xususiyat dostonidagi qahramon-lar munosabatida, tush lavhasi haqida hikoya qilingan o`r.,inlarda, asar qahramonlarining ko`rgan tushlari yuzasidan yurgizgan ta'birlarida, o`z ona yurtlarining obro`sinini har qadamda himoya qilishga tayyor ekan-liklarida seziladi. Natijada, tinglovchi yoki kitobxon islom ta'limoti bo`yicha ega bo`lgan ma'lumotini dostonidagi Alpomish, Barchinoy, qaldirg`ochlarning zohiriy xatti-harakatidagina emas, balki qalblari-dagi, e'tiqodlaridagi botiniy his-tuyg`ularda ham ko`radi.

Shuning uchun dostonida islom diniga oid qonun-qoidalarni alyhida-alohida lavhalardan zohiriy tarzda axtarish to`g`ri bo`lmaydi. «Alpomish» dostonida islom dini ta'siri uning to`liq matnida botiniy tarzda doston misralari orasiga singib ketgan maz-munda aniq seziladi. Faqat sobiq sho`ro tuzumida bu haqda fikr yuritish, bu masalani ilmiy tahlil qilish man etilgandi.. Bugungi vaziyat imkonlaridan foydalanib, aytish mumkinki, dostonning o`rganili-shi tarixida uning bu jihatlari haqida birinchi marta fikr yuritishga jur'at etmoqdamiz. Bu masala hali ko`p tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi va yangi-yangi qiziqarli mulohazalar paydo bo`ladi degan umiddamiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, doston yozib olingan Fozil Yo`ldosh o`g`li, Po`lkan, Bekmurod Jo`raboev, Sayd Murod Panaev, Bo`ri baxshi Sodiqov, Berdi baxshi, mazkur doston yozyab olinmagan, ammo uni kuylagan Islom shoir, Abdulla shoir, Nurman baxshi kabi ij-rochilarning hammasi savodsiz bo`lishlariga qaramay islom e'tiqodiga mansub ijodkorlar edilar. Mumtoz adabiyotimiz vakillari Axmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo kabi ijodkorlarning nazmlarida islom tushunchalari asar matnlariga singib ketganidek, baxshilarimiz kuyla-gan dostonlari ham islomiy dunyoqarash bilan sug`orilgandir.

«Alpomish» dostonining doston tarzida shakllanishi turkiy xalqlar madaniy xazinasiniig noyob durdonasi «Kitobi Dadam qo`rqut» bilan bog`liq. «Kitobi Dadam qo`rqut»ning kitob shaklida yozilishini olim-lar XV asrga tegishli deb topishgan bo`lsa-da, undagi afsona va rivoyatlarning yaratilishi ancha qadimgi davrlarga taalluqlidir. «Alpomish» dostonining o`g`iz versiyasida esa Dadam

qo`rqut asar qahramoni sifatida ishtirok etgan. U Bamsi-Bayrakka ism qo`yarekan: «Ismni men berdim, uzoq umrni Oллоh bersin»,—deydi. Agar «Kitobi Dadam qo`rqut»dagi bir tur kum hik-matli so`z va maqollar, rivoyatlar Muhammad (s.a.v.) nomi, qUR'OH bilan bog`liqligini, qo`rqut ota qayta-qayta iymon keltirganini nazarda tutsak, «Alpomish» doston shakliga kelguniga qadar islomiy nuqtai nazardan bir necha bor kuzatishdan o`tganiga shubha qolmaydi.

Islom dini qayta-q.ayta uqtirishicha, insonga farzand berilishi Oллоh marhamati ekanidir. Oллоh o`zining marhamatini darig` tutmagan insonga farzand ato etadi. Dostoning ilk tinglovchilari, ajdodlari-miz aynan ana shunday deb o`ylaganlar, bunga ishon-ganlar. Shuning uchun ham farzandsizlar Yaratganga iltijo qilganlar, farzand ko`rish maqsadida ko`pchi-likning duosini olishga uringanlar. «Alpomish» dos-tonining deyarli hamma versiyalarida farzandsizlik motivi o`rin olgan. Ug`iz versiyasining bosh qismida Boyondurxon ziyofatida qatnashayotgan Boybo`rabeko`g`iz). beklariga murojaat qilib, Tangridan farzand so`rab berishni iltijo etadi. Beklar duo qiladilar va Tangri bu duoni mustajob etib Boybo`rabekka farzand beradi. Unga Bamsi-Bayrak deb Ota qo`rqut ism qo`ya-di. Ota qo`rqut Bamsi-Bayrakning uylanishida sovchi-lik qiladi. Uning umri bo`yi maslahatgo`yi bo`ladi.

Qo`ng`irot «Alpomish»i nisbatan keyingi versiya' bo`lsa kerak, unda aka-uka Boybo`ri va Boysari far-zandlari bo`lmagani uchun bir to`ydagi chapanitob, boyvachchadan ta'na, dakki eshitadilar. Ular o`g`izver-siyasidagi kabi Ota qo`rqutga emas, Shohimardon piri — Hazrat Aliga murojaat qiladilar. Aka-uka Shohi-mardon ravzasiga borib, u erdagi shayxlarga nazr-niyozlar ulashib chilla o`tiradilar.

Shu paytgacha e'lon qilingan «Alpomish» dostoni matnida Shohimardon pirining Boybo`ri va Boysariga Oллоhdan farzand so`ragan o`rni tushirib qoldirilgan va bu ran o`rniga nuqtalar qo`yilgan edi. Vaholanki, uning tushirib qoldirilishi haqiqatan ham Boybo`ri va Boysarining farzandni Shohimardon pi-ridan so`ragandek tasavvurni hosil qilardi. Ma'lumki, inson boshiga tushgan qiyinchiliklarni engib o`z maqsadiga erishish uchun sabr va matonat bilan harakat

qilishi, intilishi zarur bo`ladi. Islomiy e'tiqoddagi shaxs esa o`z mushkulining echimini Olohndan deb bi-ladi, Shuning uchun ham Boybo`ri o`g`il va qizga, Boy-sari qizga ega bo`ladilar. Dostonda shu bilan birga insonnin^ taqdiri o`z xatti-harakatiga bog`liqligi ta'kidlanadi.

Albatta, «Alpomish» dostonida xalqimizning uzoq o`tmishdagi jismoniy baquvvatlilik haqidagi orzulari bilan bog`liq ma'lumotlar ham o`z aksini topgan. Jumladan, Hakimbekka qilich kor qilmasligi, o`qumasligi, uning o`tda yonmasligi «Avesto» kitobidagi qahramonlar xususiyatlarini eslatadi. Alpomish bilan birga yondirib yuborilgan qirq bitta hamrohi kuyyb kul bo`ladi, ammo Hakimbek qanday bo`lsa, shundayna-fas olib yotaveradi. Uni boshqa turli yo`llar bilan o`ldirmoqchi bo`ladilar, biroq bu amallar unga kor qilmaydi. Tabiiyki, asarning bosh qahramonidagi bu xususiyatlar mifik qahramonlar Mitra—quyosh ma'budi, Anaxita—hosil .ma'budasini eslatadi. Lekin bax-shi dostonni ijro etgan davrda islom dinidan avvalgi muddatda xalq orasida mashhur bo`lgan bu ma'budlar-ning nomi bilan ish ko`rishlari mumkin emasdi. Shu bois, ijodkorlarimiz va ijrochi baxshilarimiz 6yj muammolarning echimini hokim islom dini qahramoni Ali—Shohimardon (Mardlar shohi) orqali Olohndan gopadilar.

Dostonda "aytilishicha, Shohimardon piri qiyofasida yaxshi nurli qalandar kirib keladi va bolalarga ism qo`yilishi ham afsonaviy yo`sinda amalga oshiry-ladi.

«Shohimardon piri Boybo`ri o`g`lining otini Hakimbek qo`ydi, o`ng kiftiga besh qo`lini urdi. qo`liniig o`rni dog` bo`lib, besh panjaning o`rni bilinib qoldi» (17-6.).

Farzandga ism qo`yish marosimining bu tarzda amalga oshirilishi Hakimbekning hayot taqdirini belgilashda juda muhim ahamiyat kasb ztadi. qadriyatlarimizda qabul qilingan qoidalarga binoan farzandga ism qo`yish udumi xalqimida osongina bajarilmaydi. Farzand shukronasi uchun yurtga ziyofat tortiladi. Unga ismni uzoq umr ko`rgan, piri badavlat, uvalya-juvali, ilmli, dono qariya qo`yadi. qo`yilgan ism ham iloji boricha ma'nodor bo`lishi lozim; Ma'lum bo`la-diki, Fozil Yo`ldosh o`g`li Hakimbekka ism qo`yishtad-birini qadriyatlarimiz asosida xalq udumlariga aylangan bir vaziyatda sodir bo`lganini ta'kidlaydya. Ism

qo'yuvchi tabarruk inson Shohimardon piri bo'lga-ni uchun uning panjasining izi Hakimbekni keyincha-lik turli ofatlardan, fojialardan asragan. Ayni paytda uning[^] taqdirini Barchinoy taqdiri bilan bog'lagan.

Xalq ijodi asarlaridagi ayrim lavhalarni va tasvirlarni shartli qabul qshshsh kerak. Bugungi kun-da dostonidagi ayrim uzoq o'tmish lavhalarini izoh-lash, ularni sharhlashga ojizimiz. Bunday hollarda har bir kitobxon doston yuzaga kelgan va kuylangan muhit hamda dostonchi dunyoqarashi nuqtai nazaridan masalaga yondashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Faqat bir muhim nuqtani e'tibordan soqit qilmaslik lo-zim. U ham bo'lsa, xalq og'zaki ijodidagi asosiy maq-sad odamlar orasida yaxshilikni targ'ib etish, komil inson tushunchasiga monand va loyiq qahramonni madh etishdan iboratdir. Shuning uchun ham tasvirlangan ayrim lavhalarga ortiqcha talabchanlik bilan yondashmaslik ma'qulroq bo'ladi. Masalan, Hakimbek zindonda eka-nida mayib bo'lgan g'oz uniNg oldiga najot so'ragan-dek tushadi. Hakimbek uni davolaydi, tuzatadi, Xat bitib Boysin eliga uchishini iltimos qiladi. g'oz mak-tubni qaldirg'och oyimga etkazadi. qorajon qaldirg'och olib borgan xabar bilan Alpomishni qutqarish uchun qalmoqlar yurtiga keladi va zindondan do'stini ozod qilmoqchi bo'ladi, Bu niyat endi amalga oshay debtur-gan bir paytda Alpomish o'z do'stining yordamini rad etadi. Shuncha yo'lni mashaqqat bilan bosib kelgan qorajonning tarvuzi qo'ltig'idan tushib Boysinga qaytib ketadi. Mantiqiy savol tug'iladi: Alpomish qorajon yordamini dostonning birinchi qismida rad etmagan edi-ku? Poygada qorajon qatnashdi. Sakson sakkiz alp bilan qrajon olishdi. Nima uchun endi Alpomish uning yordamidan voz kechdi? Olimlar bu vaziyatni turlicha baholaganlar. . qimdir Alpomishni do'stlikni tushunmaganlikda ayblasa, kimdir bu ho-latni uning fe'lida ro'y bergan o'jarlik bilak izoh-ladi. Ayni paytda, hayotdagi eng muhim muammolarni, doston qahramonining shaxsan o'zi hal etishi lozim ekanini eslatgan tadqiqotchilar ham bo'ldi. qorajon bajargan yumushlarni Alpomishning o'zi osongina ba-jarar edi. Shuning uchun ularni bajarishda qora-jonning yordamini rad etmadi. Zindondan chiqarishda esa endi muammo vazni oshdi. Yordamning bahosi qim-matlashdi. Haqiqatan ham, bunday murakkab vaziyatlarda biz dostonning og'zaki ijod namunasi ekanini

hisobga olsak, masala oydinlashadi. Og`zaki ijodda esa shartlilik tamoyili ko`pincha etakchi o`rinda tura-di. Yo`qsa, yakka Alpomishning, qolaversa, Go`ro`g`lining minglab dushman lashkari bilan olishuvda g`olib ke-lishini, «Bozirgon» dostonida Bozirgon daryoning ikki qirg`og`iga oyog`ini qo`yib yukni u qirg`oqdan bu qirg`oqqa o`tkazib qo`yishini, bir ozdan so`ng kelishgan, «suv ichsa tomog`idan, sabzi esa biqinidan ko`rinadigan» yigit sifatida ta`riflanishini izohlab bo`lmaydi. . «Adpomish» dostonidagi islomiy tushunchal`arn`y sharhlashda ham ba`zan ana shunday vaziyatga duch ke-lamiz. Biz bu o`rinda dostonidagi dastlabki lavha-lardan birida ifodalangan «zakot» haqidagi ma`lu-motni nazarda tutmoqdamiz. Ma`lumki, «zakot»fiqh (islom (huquqshunosligi)da nochor musulmonlarga iqtisodiy jihatdan ta`minlangan odamlar tomonidan beriladigan qonuniy ehson berish, soliq tushunchasini anglatadi. Zakot islomdagi besh asosiy farz (bajarilishi zarur bo`lgan amal)dan biridir. Zakot miqdori bir yillik daromadning qirqdan birini tahril eta-di. «Alpomish» dostonida Boybo`ri va Boysari o`rtasidagi kelishmovchilik zakotdan boshlanadi. Hakimbek bilan Boybo`ri saxiy va baxildan suhbatlashayotganlarida, Hakimbek: «qishining moli zakotga etsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan»,— deydi. Alpomishning gapidan aniq sezilib turibdi-ki, u «zakot»ga islomiy ta`rifdan kelib chiqib baho bermoqda. Ammo Boy-buri shundan so`ng fikr yuritib: «o`n olti urug` qo`ng`irot elining ham boyi bo`lsam, ham shoyi bo`lsam, men kimga zakot beraman... Boysaribiy ukam menga zakot bersa kerak ekan»,—deb o`ylaydi.

Aslini olganda, Boybo`ri o`z yo`liga, Boysari o`z yo`liga nochor odamlarga zakot berishi lozim edi. Bax-shi bu o`rinda zakot tushunchasini Boybo`ri tomonidan soliq olish ma`nosida sharh etadi. Chunki islomiy farz asosida zakot to`lashga binoan Boysari juda ko`p boyligini berishi talab qilinardi. Boybo`ri esa un-dan faqat bitta qo`tir echki so`ramoqda xolos. Demak, ran bu erda qo`tir echkida emas, balki uni so`rash usu-lidadir. Bu echki—zakot aslida soliq to`lash mezonini bo`lgani sababli Boysariga ma`qul bo`lmadi: Zakotto`-lash uni Boybo`riga rasman bo`yinsunganini anglatar edi. Professor M. Saidov «Uzbek dostonchiligida ba`diy mahorat» (T., 1969) kitobida o`z mulohazalarini ana shu tushunchadan kelib chiqib

izohlaydi. Haqiqa-tan ham, voqeaning davomi zakotni soliq tarzida undirish yo`lini tasdiqlaydi. Bizningcha, Fozil Yo`ldosh o`g`li zakotning asil ma'nosini bilsa ham dostonda xalq ijodidagi shartlilikka asoslanib soliq ma'no-siga o`tkazib yuborgan. Doston mazmuni shu. Lavhadan so`ng keskinlashgan, Boysarining qalmoq yurtiga ko`chish uchun bosh sabab vazifasini o`tagan. Baxshiga aynan shu holat zarur edi.

Bu ko`rsatadigki, dostonchi o`z davri taomiliga ko`ra islom mafkurasini ulug`lash maqsadida zakot tushun-chasini olib kirgan bo`lsa-da, aslida markazlashgan davlat g`oyasini o`rtaga tashlaydi.

«Alpomish» dostonida inson tabiatidagi tush ko`rish xususiyatiga ham alohida e'tibor berilganiga guvoh bo`lamiz. Avvalo, tush mifik dunyoqarashning tarkibiy qismi, xalq maishiy hayotida unga qattiq ishongan. Keyinchalik islom dinining ta'sirida tushga munosabat yanada uyg`unlashgan. Shuning uchun «Alpomish» dostonida bu masalaning alohida ta'kidlanishinitabiyy hol sifatida qabul qilish mumkin.

Yaxshi tush odamlarga umid, kelajakka ishonch tuyg`ularini hosil qilgan. Ba'zi kinshlar hayotidagi jiddiy o`zgarishlar tushlarida ayon bo`ltan. Dini islom aqidasi bo`yicha Muhammad (s.a.v)ning payg`ambar bo`lishi haqidagi birinchi xabar tushida ma'lum bo`lgan.

«Alpomish» dostonida ham' tush qahramonlarning taqdirini belgilashda muhim ahamiyat kaeb etadi.. Baxshi tushning o`zinigina emas, uning sharhlanishini ham islomda belgilangan qoidalarga binoan amalga oshi-radi. Bu yo`nalish, ayniqsa, Alpomish, Barchinoy va qorajon munosabatlariga aniqlik kiritish borasida alohida yorqin namoyon bo`ladi. Dostonning birinchi qismida Alpomishni bir kecha chiltonlar mehmon qi-ladilar. Ular Barchinning ruhi bilan Alpomish ruhini uchrashtirib, bu ikki yoshning taqdirini Olloh birlashtirganini bildiradilar. Ko`p o`tmay Alpomish, Barchin, qorajon bir ,tush ko`radilar. Ularning tushlari bir xil bo`lib chiqadi. .

Aynan shu tushni baxshi ta'rifi bo'yicha qorajon ham ko'radi. Dostonda bu haqda shunday jumla keltiriladi: «Bog'onag'i tush ko'rgan qorajon qalmoq nomoz vaqti o'rnidan kalima aytib turdi» (101—102-6.).

qorajonning olti akalaridan yuz o'girishi, Alpomishni hamisha qo'llab-quvvatlashidagi ma'naviy asos tushda islomni qabul qilishi bilan izohlanadi. «Alpomish» dostonidagi keyingi voqealar butkul Alpomish va qorajonning inoq do'stligi, og'a-iniligi asosida davom etadi. Baxshi dostonidagi kichik lavhalarda ham islomiy tushunchalarga bot-bot murojaat etadiki, dostonidagi g'oyaviy mazmun, mafkuraviy yo'nalish dini islom ta'limoti bilan bog'liq holda talqin etilgani ayon bo'ladi. Masalan, Alpomish uchirib yuborgan g'oz qano-tida xatni Boysin yurtiga eltar ekan, yo'lda betob ovchi uni otmoqchi bo'ladi. Ovchi ikki galining birida shu g'ozni avval o'zi yarador qilganini, uni o'ldirolmay qolgani uchun betob bo'lganini va uni otsa, tuzalib ketishini takrorlaydi. Ammo uning onasi o'z o'g'lini yovuz yo'ldan qaytarishga urinadi. U o'g'liga:

Qanday bo'lsa yolgiz g'ozni o'ldirma.

Musulmonsan, bunday ishni qilmagin.

Bekning elchisiga dushman bo'lmagin,

Xat ko'targan g'ozni bolam, urmagin (237-6.),—

deb nasihat qiladi.

Ammo nodon o'g'il onasining maslahatiga ko'nmaydi:

Yolg'iz g'ozning tarafini olasan,

Munday bo'lsang, sen imonsiz o'lasan (237-6.),—

deb onasiga qarshi gapiradi. Bu kichik dialogda xal-qyamiz og'zaki ijodidagi juda muhim xislat aks etgan. Birinchidan, g'oz o'ldirib bo'lmaydigan xabarchi qush sifatida baholanmoqda. Ikkinchidan, bekning elchisi daxlsiz ekani qayd etilmoqda. Uchinchidan, o'g'ilning o'zi iymoni butun bo'lmagani sababli iymonli ona-sini iymonsiz deb atayotgani bo'rttirib ko'rsatilmoqda. Va, nihoyat, to'rtinchidan, (onaga qo'l ko'tarmoqchi bo'lgan o'g'ilning kosasi oqarmasligi ham ta'kidlanmoqda. Aynan shu lavhada yana bir ibratli fikr il-gari surilgan. Iymonda har bir odam ikkinchi odamning salomini manzilga etkazishi shart hisoblangan. Safar

davomida bu salom xabarchining bo`ynidagi qarz bilan teng bo`lgan. Shuning uchun ona g`ozni tezroq uchishga da'vat etarkan: «Arza xati qarz bo`p qolgan bo`yningda»,—deb g`ozning mas'uliyatini unga yana bir eslatgandek bo`ladi.

Insof, iymon inson ongidagi eng mo`tabar tushunchadir. Ona uchun farzanddan aziz va qadrli inson bo`lmasa kerak. Ammo biz fikr yuritayotgan lavhada ona o`z farzandini insofga chaqirar ekan, iymonni farzand mehridan yuqori qo`yadi. Biz bu o`rinda onany bemehrlikda ayblay olmaymiz. Ona o`z farzandini jonidan ham aziz ko`radi. Birok, uning qalbidagi iymo-tushunchasi ayni choqda ustunlik qiladi.

Ma'lumki, sho`ro tuzumi siyosatining asosiy mazmuni ko`p jihatdan diniy tushunchalarga qarshi kurashdan iborat edi. Nashr qilinastgan har bir xalq og`zaki ijodi senzura nazoratidan o`tar ekan, nozirlarning e'tibori ko`proq aynan ana sh.u masalaga qaratilardi.

Ana shu sababli ham dostonning asrimizning 20-yillarida g`ozi Olim Yunusov ilk e'lon qilgan parchalaridayoq islomiy tushunchalar aks etgai parchalarni nashrga bermagan. Bu hol keyinchalik Hamid Olimjon, Xodi Zarif va To`ra Mirzaevlar tomonidan davom ettirildi. Haqiqatan ham, «sen zamonga boq» qabilida kuch tutgan olimlar «Alpomish» dostonini iloji boricha keng xalq ommasiga etkazish harakatida bo`lganlar. Faqat 1992—1993 yillarda ikki jilddan iborat tarzda va 1998 yilda alohida e'lon qilingan «Alpomish» avvalgilarga nisbatan diniy e'tiqodlarga oid parchalar saqlangan holda nashrga tayyorlandi. Endilikda ma'lum bo`lyaptiki, dostonning eng go`zal mazmundagi qismlari bilan tanishish uning islomiy jihatdan ham e'tiborga loyiq o`rinlari borligidan dalolat bermoqda. Va yana shu narsa ham ma'lum bo`lyaptiki, agar mazkur parchalar bolsheviklar siyosati avj olgan bir paytda qisqartirilmasdan nashrga tayyorlanganda, buning oqibatida ham dostondan, ham yaxshi insonlardan ajralishimiz mumkin ekai. Zero 1952 yilda «Alpomish» dostonida feodal bosqinchilik siyosati aks etgan, deb uni yo`q qilish taraddudiga tug`ilgan bir paytda diniy tushunchalarning mavjudligi ham qo`shilsa,

shubhasiz, dostonni mutlaq yo`q qilishga . erishilar edi. Biz bu fikrni 1998 yilda to`liq nashr etilgan dostonidagi bir lavhaga suyangan holda ta'kidlamoqchimiz.

Gap shundaki, Fozil Yo`ldosh bilan suhbatlashgan olimlar o`z tadqiqotlarida qayta-qayta baxshining - dostonida diniy tushunchalarning deyarli yo`qligini tasdiqlashgan. V. M. Jirmunskiy o`zining «Turkiy qahramonlik eposi» kitobida bu masalaga alohida to`x-talib, Fozil Yo`ldosh kuylagan nusxada diniy tushunchalarning kamligini alohida fazilat sifatida ko`rsatadi. Shubhasiz, H. Olimjon, V. M. Jirmunskiy, H. T. Zarifov dostonidagi islomiy tushunchalarning mavjudligini yaxshi bilganlar. Ammo davr talabibilan murosayu madora yo`li bilan ish tutishgan va o`zlarining o`zbek xalqi oldidagi burchlarini bajarishgan.

Albatta, xalq og`zaki ijodida bo`lgani kabi asar qahramonlarining taqdiri va qismatini butunicha Olloh qudrati bilan belgilab qo`yish to`g`ri bo`lmaydi. «Sendan harakat, mendan barakat» deganlaridek, asarda ishtirok etuvchi qahramonlar o`z taqdirlarini mut-laq ravishda Olloh irodasidan deb bilmaydilar. Ular o`z kelajaklari va baxtlari uchun kurashadilar, hech qachon mehnatdan qochmaydilar. Alpomish va Barchinoyning avval ilm olishi, so`ng hunarli bo`lishi, qolaversa, o`z hayotini o`zi yo`lga qo`yishi uchun qilgan harakatlari fikrimizning dalilidir. Xalq baxshilari ham o`rni kelsa-kelmasa islom va shariat qoidalarini doston mazmuniga singdiravermaydilar. Ular har bir harakatni asoslashga, zarur lavhalarni nozaruridan ajratishga harakat qiladilar.

Xullas, bizningcha, «Alpomish» dostonida Fozil Yo`ldosh o`g`li asarni ijro etayotgan 1928 yildagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni to`g`ri baholay olgan, bilimdon va tajribali shaxs sifatida o`zining islomiy dunyo-qarashini ifodalashga echim topa bilgan. qizil siyo-sat avjiga chiqqan bir paytda baxshi milliy qadriyat-larimizga hurmat, (xalqparvarlik, insonparvarlik, vataiga muhabbat g`oyalarini o`z e'tiqodi — islomiy tushunchalar orqali ifodaladi. Bu bilan ham oddiy xalq farzandlarining iymonli va barkamol inson bo`lib etishiga hissa qo`shdi, ham «Alpomish»dek go`zal dostonning bizgacha etib kelishini ta'minladi.

2.3. Dostonda shaxs erki muammosining qo'yilishi

Erk—inson uchun eng buyuk ne'mat. Erksiz inson — ozod qushning cheksiz osmon quchog'ida yayrab uchish imkonidan mahrum bo'lgandek holatdadir. Shuning uchun ham inson istagi, xohishining amalga oshishi, ko'nglida paydo bo'lgan rejani amalga oshirishi uchun imkon berilishi erk belgisidir. Oriyatning erga urilishi, nomusning poymol etilishi, haqoratlanish, nafaqat erkning jilovlanishi, balki tahqirlanishi hamdir. Biz ko'pincha dildagi so'zni ayta olish erkinlik gashtini surish ekanini his etmaymiz. Shu bois xalqimiz og'zaki ijodidagi bironta asar yo'qki, unda inson g'ururi tuproqqa belansin. Bironta asar yo'qki, odam shaxsiyati xor etilsin. Agar shunday lavha o'rin olgan taqdirda ham uning zaminida, albatta, muhim bir falsafiy fikr singdirilgan bo'ladi. Ayniqsa, epik asarlarda inson g'ururi, shaxs oriyati, qabul qilingan hayotiy qaror hamisha hurmat bilan tilga olinadi.

«Alpomish» dostonida, bizningcha, shaxs erki muammosi bir necha yo'nalishlarda o'z echimini topgan. Ulardan biri so'z erkinligidir. Dostondagi voqealarni tahlil etar ekanmiz, asar ishtirokchilarining aytmoqchi bo'lgan gaplarini, fikrlarini hadiksiramay, iqtisodiy va siyosiy to'siqlarni his etmay ikkilanmasdan ifoda eta olganliklariga guvoh bo'lamiz. Bu fazilat dostonning dastlabki qismidayoq ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, Boybo'ri bilan Boysari o'n olti urug' qo'ng'iroq elida eng obro'li odamlardan edilar. Ularning ota-bobolari shu elning yurtboshisi bo'lib o'tganlar. Elni boshqarish navbati Boybo'ri va Boysarilarga kelganda, oilaviy inqiroz xavfi paydo bo'ladi: ular farzand ko'rmaydilar. Xalqimizda farzandsizlik fojia hisoblanadi. Omma farzandsiz kishiga ham achinadi, ham ma'lum darajada undan o'zini olib qochadi, Doston mazmuni Dobonbiy avlodidagi aynan ana shu farzandsizlik muammosidan boshlanadi.

Xalq ijodida hamisha uzoq muddat kutilgan farzand o'zi tug'ilgan muhitda keskin o'zgarishlar qiluvchi xislatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham Dobonbiyning Alpinbiy degan o'g'il ko'rishi, Alpinbiyning Boybo'ri va Boysari ismli farzandli bo'lishi hayotning bir maromda davom etayotganini anglatar edi.

Agar Hakimbek ham o'z otasi, bobosi kabi dunyoga kelganida, u haqda alohida doston yaratishning hojati ham bo'lmasdi. Binobarin, Hakimbekning tug'ilishiga alohida e'tibor berilishi tabiiydir.

Doston ijodkori—xalq Boybo'ri bilan Boysarida farzand ko'rish ishtiyoqi va zaruratini alohida uyg'otish uchun ularning cho'paron to'yga kelishlari lavhasini taqdim qiladi. Asosiy maqsad Boybo'ri va Boysariga endilikda farzandsiz hayot kechirish mumkin emasligini uqtirish, ularni keskin harakatlarga da'vat etish edi. Ikkinchidan, Hakimbek, qaldirg'och, Barchinoyning tug'ilishi avvalgi avlodlarning hayotga kelishi kabi oddiy hol emasligini ta'kidlash edi. Shu sababdan to'yga kelgan aka-ukalar bu safar har galgidek hurmat-izzatga zga bo'lmaydilar. Hatto, o'zlarining kelganlaridan to'y egalari bexabarmikan, degan xayolga ham boradilar. Ana shu o'rinda xalqimizda «Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib» deganlaridek, poyga betda turgan chapanitob boyvachcha akakaning nafsoniyatiga, oriyatiga tegadigan haq gapni aytadi. Agar dostonning birinchi sahifasidagi bu lavhaga e'tibor qilsak, ijodkor undagi har bir harakatni o'ta topqirlik bilan tuzilgan reja asosida amalga oshirganini sezamiz. Birinchidan, Boybo'ri va Boysariga og'ir botadigan ran «poyga betdan» chiqadi. Ya'ni bu gapni alohida nufuzga ega bo'lgan shaxs emas; hamma qatori to'yga kelgan-ketganni kuzatib turgan, to'y xizmatida bo'lgan oddiy odam aytgan. Ikkinchidan, bu shaxs oddiy bo'lib, juda faqirlar qatorida qolib ketgan ham emas, balki «boyvachcha». Demak, u yurtning Boybo'ri va Boysaridan so'ng yurtboshilik ma'naviy-huquqsiz odam tomonidan egallanishini istamaydi; Uchiichidan, «chapanitob» odamgina o'zidan yuqori pogona mavqeiga ega odamga haqiqatni ayta olishi mumkin. Va, to'rtinchidan, u odam aka-ukaning suyak-suyagidan o'tib ketadigan gapni aytish huquqiga ega. Har qancha; og'ir bo'lsa ham Boybo'ri va Boysari o'zlariga qarata aytilgan ko'ngilsiz ran haqiqat bo'lgani uchun eshitishga majburlar. Dostonda ularning o'ksiganlari cho'ponga sakson tilla tashlaganlaridan, bedov otlarini unsiz «chechib» uyga etganlaridan bilinadi. Ammo ularning birontasi chapanitob boyvachchaning so'zlari-ni inkor etmadilar. Bunday gapldrni aytishga haddi yo'qligini betiga solmadilar. Hozirgi paytda dunyodagi ilg'or va rivojlangan

mamlakatlarda demokratiya haqida gapirish, takror-takror ilmiy konfereitsiyalar o`tkazish odat tusiga kirgan. Demokratik munosabatlar ustuvor davlatlar o`z ish yuritish, ma'muriy rahbarlikni amalga oshirish tizimlaridagi aksari muvaffaqiyat va yutuqlarni aynan ana shu ustuvorlik bilan izohlaydilar. Ammo demokratik munosabatlarnikg namunalari xalq dahosining mahsuli «Alpomish» singari asarlarda yorqin tasvirlanib, kuylab kelinganini ayrim demokratik davlat vakillari eslarmikanlar?!

Dostonda aka-ukalar o`rtasida zakot janjali boshlanganidan so`ng Boysari o`ziga qarashli o`n minguyli qo`ng`irot elini qalmoq yurtiga ko`chirib ketishi yoki Boybo`riga zakot to`lab Boysinda yashashiga boshiqotib qoladi. To`g`ri, agar ran faqat o`zining oilasiga tegish-li bo`lganida, u bu masalaa osongina hal etishi mumkin edi. Ammo o`n ming uyli elning taqdirini belgilash bu qadar oson hal etilmaydi. Shuning uchunham Boysari taqdiri hal etilayotgan odamlarni jamlab o`ziga xos «referendum» o`tkazishga k.apop qiladi. By yig`inni boshlashdan avval Boyeari vaziyat bilanyi-g`ilganlarni tanishtiradi, har kim o`z taqdirini o`zi belgilashi mumkinligini ta'kidlaydi: Oh urganda ko`zdan oqar selob yosh, Maslahat ber, o`n ming uyli qarindosh, Barchinoyim bo`y etgandir qalamqosh, Zolim bilan hargiz bo`lmanglar yo`ldosh. qo`ngirot elidan molga zakot kelibdi, Maslahat ber, o`n ming uyli qarindosh (19-6.).

Xalq tasavvuriga ko`ra bunday mas'uliyatli vaziyat-dd yig`inda ishtirok etayotgan har bir kimsa o`z fikrini bayon etishga haqli. Ehtimol, shuning uchun ham baxshi so`zga chnqqan odamxching oddiyligini ta'kidlashga alohida urg`u bergandek bo`ladi: «Shu majlisda bir Yartiboy oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo`lsa, to`rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo`sag`aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo`lib, poyga betda yotar edi» (20-6.). Boysarining so`ragan maslahatiga Yartiboy juda siyosatdonlarcha javob beradi. U dastlab Boysarining o`z urug`iga yurtboshi ekaiini ta'kidlaydi. Uning qaroriga hamma ko`nishini va haqiqatan ham zakot to`lab yashagandan ko`ra o`zga yurtga ko`chish ma'qulligini aytadi: Maslahat bermaymiz Boysaribiyga, Osilmaymiz Boybo`rinyng doriga, Biring aka, biring uka, Boysari, Maslahatni,

shohim o`zing bilasan (20-6.). Ushbu damning damlarini dam dema, Boshing omon, davlatingni kam dema. Sen ketar bo`lsang, qalmoq yurtiga Bul elatni qolar deb ham g`am ema (23-6.).

Boysari chaqirgan yig`in shu yo`sinda qalmoq yurtiga ko`chish qaroriga keladi. Professor M.Saidovning «O`zbek dostonchiligida badiiy mahorat» kitobida dostonda ishtirok etuvchi avlodlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratadi. Otalar guruhini 15oy Boybo`ri va Boysari, bolalar guruhini Hakimbek, qaldirg`och va Barchinoy tashkil etadi. Bu o`rinda so`z erki munosabati bilan Barchinoyning onasi bilan bo`lgan suhbatini ham eslash" maqsadga muvofiqdir. qalmoq yurtiga ko`chishga jazm etgan minglab odamlar orasida faqat Barchinoy bu qarorga qo`shilmaganini izhor etadi. Yosh bo`lishiga qaramay u ham o`zining so`zlash huquqidan foydalanib, onasiga o`z mulohazalarini bildiradi:

Abzallab keltirding hayvon to`ringdi, Bul ko`chishing, ena, mening sho`rimdi(r). Xotin bo`lmasmikan urning vaziri, Er deganning aqlin olmas bo`lurmi, Aldao-suldab yo`lga solmas bo`lurmi (27-6.). Ko`p jafoni bizga solar qalmoqlar, Boy otamman biy boboma ne bo`ldi, Iasihat qilmabsan, ena mushtipar (28-6.).

Agar M.Saidov fikrini esga olsak, Hakimbek zakot haqida o`z mulohazalarini bildirib, Boysin elida bitta yurtboshi rahbarlik qiladigan davlatni barpo qilish g`oyasini ilgari surgan bo`lib chiqadi. Bu g`oyaning mohiyatig`a to`liq tushunib etmagan bo`lsa ham Boybo`ri o`g`li Hakimbek o`ylab topgan yangilikni hayotga tatbiq etishga kirisha boshlaydi. Tabiiy o`tmish an'analari asosida tarbiyalangan Boysari va u boshchilik qilayotgan o`n ming uyli qo`ng`irot eli bu g`oyani qabul qilmaydi. Hakimbek boshliq yoshlar guruhining vakilasi Barchinoygina zakotni to`lash tarafida bo`-ladi va onasini o`z eriga kerakli zarur maslahatni berolmaganlikda ayblaydi. Aslini olganda, uzoq muddat intizorlik bilan kutilgan farzand Hakimbekning Boysin elida yangi hayotni boshlashga sabab bo`lishi ko`rinishdan soddagina bo`lib tuyulgan zakot undirish g`oyasi bilan boshlangan edi.

Xalq, yuqorida qayd qilganimizdek, shaxs erkini hamisha himoya qilgan va har bir odam tomonidan bildirilgan mulohazani hurmat qilish tarafini yoqlagan. Ammo shu bilan birga soʻz erki huquqidan foydalanib aytilgan har qanday mulohazani ham koʻr-koʻrona mushohada yuritmay qabul qilishga tanqidiy munosabat-da boʻlgan. «Alpomish» dostonida masalaning bu tomoni ham, bizningcha, nazarda tutilgan. Xususan, Boysari qalmoqlar yurtining himoyachilari boʻlmish toʻq-son alp qizi Barchinoyni xotinlikka talab qilib kelganida, samarali echim topish maqsadida yana mas-lahat qilish uchun yigʻin chaqiradi. Boysarining oʻzi Barchinoyni toʻqson alp oʻrtasiga tashlab qoʻyishni istamaydi, shuning uchun ham yurtda oʻrnatilgan taomilga koʻra muhim muammoni hal qilish uchun odamlarning mulohazalarini eshitishga majbur edi. qizigʻi shundaki, bu safar ham el nomidan yana Yartiboy soʻzga chi-qadi. U bu safar ham oʻz oʻylarini aniq va ravshan ifodalaydi:

Xon Boysari, eshit aytgan soʻzimdi, Bul alplarga boshlab kelgan oʻzingdi, Tortinmay beraber endi qizingdi, Hazil bilma mening aytgan soʻzimdi. Bu alplarni kuyov qilib olamiz, Muna elga toza erkin boʻlamiz, Bolalarni togʻa-jijan qilamiz, qarindosh boʻp biz qatnashib yuramiz (60-6.).

Yartiboyning gaplaridan maʼlum boʻlyaptiki. uni Barchinoyning taqdiri qiziqirmaydi. Barchinoyning Hakimbekka beshikkerti qilinganidan xabari boʻlgani holda uni alplarga topshirishni maʼqul koʻradi. Shu bahona bilan u qalmoqlar yurtida zrkinq nafas olish rgjasini tuzadi. Bu safar ham unga soʻz erki berildi, ammo Boysari uning maslahatini maʼqullamadi. Boysari Barchinoyning jismoniy kuchiga maʼlum darajada ishongani holda alplarni ertasi kuni kelishga koʻndiradi. Ayni paytda koʻp jihatdan Alpo-mishga xabar berishni ham oʻylaydi. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan misollardan dostonida soʻz erkiga eʼtibor berilgani, har bir shaxsning oʻz fikrini bayon etish huquqi borligining taʼkidlanishi maʼlum boʻladi.

Shaxs erki faqat oʻz fikrlarini bayon etish bilan cheklanmaydi. Shaxs erki insonning istagiga koʻra oʻz taqdirini oʻzi belgilashini, oʻz xohishiga koʻra harakat qilishini ham taqazo etadi. Bu jihatdan «Alpomish» dostonida juda koʻp ibratli

lavhalar mavjuddir. Masalan, biz avvalgi sahifalarda Boysarining qalmoqlar yurtiga ko`chishni ma'qul topgani va bu istagi-ni amalga oshirganini aytgan edik. Inson o`z taqdirini o`zi belgilashi, ayniqsa, Barchinoyning turmushga chiqishi lavhasida aniq seziladi. Dastlab Barchinoyni o`g`illariga olib berish uchun Surxayil sovchilikka boradi. U o`z maqsadiga erisholmaganidan so`ng alplarning o`zi qizning otasini ko`ndirishga, hatto, unga tahdid qilishga urinishadi. Voqealarning mantiqiy rivojida Barchinoy taqdiri, avvalo otasi, qolaversa, onasi ixtiyorida ekani sezilgandek bo`ladi. Ammo dostonning davomida kutilmagan vaziyat vujudga kelady. Boysari, avvalo, alplardan o`ylash uchun bir kunga muhlat oladi. Bir kun o`tgandan keyin esa o`zbeklarning ajoyib odatlarini alplarga ma'lum qiladi: «Biz maslahat qip yil ag`darib ko`rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o`n to`rtga chiqqan ekan, bizning o`zbekniig rasmi shunday bo`ladi: qiz o`n to`rtga chiqqan so`ng o`z ixtiyori o`zida qoladi, bizning aytganimizga ko`nmay, tepaning boshiga o`tovini tikib o`tiribdi, o`ziga boringizlar, o`zidan so`rangizlar, biringizga tiya-mi, baringizga tiyami, o`zidan so`rab bilingizlar» (64-6.).

Albatta, Boysarining ma'lumotida Barchinoyning maslahat so`rab qilingan yig`inda o`z erkini himoya qilib aytgan so`zlari ta'siri bilinib turadi. Yarti-boydan keyin Barchinoy so`zga chiqib bir tomondanota-si xohishiga bo`ysunishini va agar Boysari rozi bo`lsa, alplarga o`zi muomala qilishini aytadi:

Xafa bo`lma, jonim otam, darvishim, Xarna deb amr etsang, ani qilayin, qaerda amr etsang, borib turayin, Bu alplarga o`zim javob berayin (63-6).

Shuning uchun ham Boysari alplarga ishonch bilan Barchinoyning xog`ishi o`zida ekanini va uning o`ziga murojaat etishlarini ta'kidlaydi. Bu lavha bilan xalqimiz bironta inson taqdirini boshqa biron shaxs-hal qilishga haqqi yo`qligini uqtirady. Haqiqatan ham, xalq og`zaki ijodidagi ertak yoki doston kabi epik janrlarda byz bironta odamning tazyiqi bilan" safarga chiqqanini, zo`rlik bilan turmush qurganini yoki yana bironta boshqa shu.kabi- ishlarni qilganini uchratmaymiz. Har bir asar qahramonining xatti-ha-rakati, asosan, o`z ixtiyoriga bog`liq ekani alohida ko`rsatilgandek (bo`ladi. Hatto, ertaklarda «borsa kelmas» deb ataladigan mashhur yo`lni tanlashda ham qahramon o`z ixtiyori bilan harakat

qiladi. Ba'zan ertak, dostonlarda o'ta mushkul vazifalarni bajarish shartlari uchraydi, lekin o'shanday paytlarda ham oxir pnovardida so'nggi qarorga kelish qahramonning o'ziga havola etiladi. Shuning uchun ham «Alpomish» dos-tonida Barchinoyning turmushga chiqish muammosini ijodkor xalq uning o'ziga topshiradi. Ana shunday nozik vaziyatda Barchinoy alplardan o'zini himoya qila olishi kerak edi. «Alpomish» dostonining oltoy, o'g'iz, qipchoq versiyalarida uylanishni istagan bo'lg'usi kuyov o'zi tanlagan qizni kurashda engish shartini bajarishi qayd etilgan. Ehtimol, ana shu an'ananing bir ifo-dasi sifatida baxshilar Barchinoyning katta jismo-niy kuchga-ega ekanligini tasvirlaydilar. Yo'qsa, alp-larni hech qandai kuch to'xtatib qololmas edi. Barchin Ko'kamanga javob berishda jismonan undan qolishmas-ligini aytadi:

Eshitgin qalmoqlar, aytgan tilimman,

Meni olar kelmas sening qo'lingdan (65-6.).

So'z aytkichi senga menday mushtipar,

Bilsang, men ham, qalmoq, senga barobar (66-6.).

Albatta, bugungi kun o'quvchisining ko'z oldida endigi-na o'n-to'rt yoshga kyrgan nozik qizning barvasta alplarga kurashda taraf bo'lib chiqishini tasavvur qilish qiyin. Bu o'rinda baxshilar xalq og'zaki ijodidagi shartlilik usulidan foydalanganlar. Barchinni har, tomonlama to'kis qiz sifatida tinglovchilarga tasvirlagan baxshi uning jismoniy barkamolligini ham yodidan chiqarmagan. Ayniqsa, bu lavhaning echimijuda go'zal tarzda topilgan, deyish mumkin. Barchinoyni zo'rlik bilan alplarning oldiga sudrab chiqmoqchi bo'l-gan Ko'kamanni u ko'tarib erga uradi. Kutish joniga tekkan Ko'kaldosh: «Ko'kamanga qaranglar, u bu yoqqa chiqmadi. Uzbekning qizi bilan aylanishib qoldi-mi?»— deydi. Xabar olgani kirganlar:«E, o'zbekning qizi Ko'kamanni bosib o'ldirib qo'yibdi»,—deb aytadi. Demak, xalq fikricha, har kim o'zini jismoniy jihatdan ham himoya qila olishi lozim ekan. Shunda erkinlikni to'liq his etish tuyg'usi shakllana boradi. Barchin ayni choqda to'qson alpni o'z xohishiga ko'nishga majbur qiladi, Alpomishni chaqirish uchun olti oy muhlat so'raydi.

«Alpolgish» dostonida xatti-harakat erkinligi Hakimbekning qalmoqlar yurtiga Barchinoyni olib ke-lish uchun otlanganida ham ko`zga tashlanadi. To`g`ri, bu voqea bilan bog`lyq lavhalarda qaldirg`ochning Hakimbekni safarga da'vat etishi muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, bunday vaziyatlarda baxshi atayin Hakimbekni bir oz soddaroq, o`ziga ishonchsizroq) ekanini» tasvirlagan. Ammo Hakimbek safarga otlanganidan so`ng uning xarakatlari qat`iyatli, o`zi shijoatli bo`lib boradi. Barchinni olib kelish uchun otlanishida o`z taqdirini o`zi belgilab ish tutayotgani aniq ifodalanadi.

Xalq og`zaki ijodi asarlarida bo`lgani kabi, «Al-pomish»da ham har kim o`z harakati uchun javob berishi shart hisoblanadi. U to`g`ri yoki noto`g`ri qarorga o`z xohishi bilan keladi. Shuningdek, bu qarorning oqi-bati uchun ham shaxsan o`zi javob beradi. Masalan, Boysarining qalmoqlar yurtiga ko`chib kelishiga hech qim aralashmaydi. Un ming uyli qo`ng`irot eli olty oylik masofani mashaqqat bilan bosib o`tib begona yurtda qo`nim topadi. Faraz qilaylik Toychixon qo`ng`irotlklarga hech qanday tazyiq o`tkazmadi, deb. Bari bir o`zining ona yurtidan uzoqda hayot kechirish qanchalar azobli ekanini tasavvur qilish mumkin-ku. Lekin shunga qaramay, Hakimbek o`z yurtdoshlarini Boysinga olib ketayotganida Boysari ulardan ajralib qoladi. Uz ona yurtiga qaytib- ketish taklifini rad etadi. Bu bilan u o`zini o`zi jazolayotgandek bo`ladi. Ikkinchi tomondan Boybo`rining unga o`tkazgan alamiga javbb tariqasida ham Boysinga qaytmaslikka qaror qiladi. - Atrofidagi yaqin kishilarning ketish haqidagi taklifi unga kor qilmaydi. Uning ko`nglidagi gapni odamlar kelib Alpomishga shunday tushuntiradilar: «qaytib borsam, ko`chib, borib, ul bachchag`ar (Boybo`ri— O. M.), o`g`lim borib ham o`zingni olib keldi, ham qi-zingni olib keldi, — deb betimga ta'na qiladi» (169-6.). Ko`rinib turibdiki, dostonlarda oriyat, g`u-rur baland baholanadi, ta'naga qolish oriyatning oyoq osti qilinishi har qanday jazodan oliyroqdir. Boysariga qolsa o`z ona yurtiga ketishga tayyor, ammo keyinchalik eshitishi mumkin bo`lgan gaplar ungatinchlik bermaydi, o`jarona g`ururi yo`l qo`ymaydi. Shusa-bab u o`z yurtiga ketmaydi. Oxirgi daqiqada Barchinoy ham unga ta'sir qilmoqchi bo`lib ikki og`iz so`z ay-gadi:

«Ota ne bo`ldi?»—deb zo`rlab ko`radi,
quloq solmay Boysari o`rlab turadi (170-6.).

Ammo Boysarining qarori qat'iy edi. Baxshi uning qalbidagi og`ir musibatli holatni shunday tasvir etadi: «Boysari qizini uzatib, o`n ming uyliqo`ng`irot bari ko`chib yo`lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg`iz qolib, ham yurtidan, ham qizidan ayrilib, kallasi g`uvullab musofirligi asar qilib qoldi» (172-6.). Ehtimol, xalq ijodkorlari Boysarining ahvolini Myglovchyga tushuntirar ekanlar, irodasi mustahkam" erkak kishi qiyofasini yaratmoqchi bo`lgandirlar, eh-timol uning o`jar odam ekani tanqid qilingandir. Boysari taqdiridagi fojiani his qildi, o`zga yurtda yakka o`zi qoldi, ammo bo`yin egib akasining oldiga qaytib borishdan ko`ra o`jarlik bilan og`ir qismat-ny qabul qildi. Hatto, dostonning ikkinchi qismida Hakimbek yakka Boysarini olib kelish uchun safarga otlanadi. Bu maqsad yo`lida qirq yigit va Bektemir nobud bo`ladi. Alpomishning o`zi etti yil tutqunlikda, zindonda yotadi. Lekin hamma mushkul dovonlar ortda qolib, yurtga qaytish muammosi paydo bo`lganda, Boysari yana rad javobini beradi. Bunday lavhalar ta'sirida har qanday tinglovchida ham o`jarlik va qaysarlikka tanqidiy munosabat paydo bo`ladi. Har qanday vaziyatda aql bilan muloh-aza yuritish, o`z ha-rakatini odilona baholay olish tuyg`usi turiladi. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati ham mana shunday ibratli lavhalar zaminida aniq namoyon bo`ladi.

Shunday qilib, xalq epik ijodidagi dostonlardan biri bo`lmish «Alpomish» dostonida shaxe erki, so`z erki, xatti-harakat erkinligi bugungi kun mezoni bilan o`lchanganda ham.eng odilona hal etilgan. Xalq tasavvurida yillar va asrlar davomida shakllangan inson hurmati, har bir shaxsning o`z taqdirini o`zi belgilash huquqi «Alpomish» dostonida ham mukammal va demokrgtik echimini topgan.

XULOSALAR

1. O`quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga qo`yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo`lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog`liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

2. Axloqiy ong tarbiyaning negizida tashkil etadi. Axloqiy ong ijobiy faoliyatida o`z ifodasini topadi. Uning mezoni axloqiy bilim, axloq normalari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. O`quvchining axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni namayon etadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori pog`onaga ko`tarishidir. Shu boisdan axloqiy ongning etukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo`lib, u insoniyat qo`lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o`zlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

3. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish muassasi pedagogik jamoasining umumiy ishining tarkibiy qismi bo`lib, ularning o`tkazilishida maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, tajribali mutaxassis o`qituvchilar, mahalla kengashlari, ota-onalar qo`mitasi, o`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadilar. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo`lga qo`yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko`riklar, konferentsiya, bahs-munozara va boshqalar.

4. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o`z o`rni va ahamiyatiga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning qamrovi keng, shu bois, ularni qanday shakl va uslubda o`tkazilishi mutaxassis-o`qituvchining tajribasi, mahorati hamda o`quv muassasi rahbariyati, jamoasining, fan o`qituvchilarining tashabbuslarini qo`llab-quvvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam ko`rsatish, shu bilan birga o`quvchilarning istak-hohishlari, qiziqishlari,

ehtiyajlari va ijtimoiy faolliklarga bog'liq. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

5. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining asl durdonalari, masalan, xalq dostonlari alohida adabiy-badiiy va ma'naviy-ma'rifiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq dostonlari xalqning hayoti, kurashi orzu-umidlari ifodasigina bo'lib qolmay, avlodlarni kamolotga etaklovchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblangan. Dostonlar o'z hatida milliy mafkura, milliy g'oya va milliy qadriyatlarimizni, xalqning baxtli yashash to'g'risidagi ideal orzu istaklarini ifodalagan sababli har bir avlod tomonidan qiziqib, ishtiyoq bilan tinglangan va har avlodning tafakkur dunyosi bilan boyitilgan holda keyingilariga asrab avaylab o'tkazilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Milliy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola o'z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi o'zida ifodalanadi. O'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas».

6. Demak, o'z Vatanining jonkuyari bo'lgan haqiqiy insonni kamolga etkazish uchun biz uzoq asrlik milliy an'analarni o'rganishimiz va milliy hamda umuminsoniy g'oyalarni, qadriyatlarni bugungi avlod ongiga singdirishimiz darkor. Bu esa o'z-o'zidan xalq og'zaki badiiy ijodiga, xususan, eng yirik epik janr bo'lgan dostonlarga ham murojaat etishni taqozo qiladi. Chunki xalq tafakkuri, dunyoqarashi, pedagogikasi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, uning boy ma'naviy merosi-og'zaki ijodida, xususan, dostonlarda epik qahramonning dunyoga kelishi, o'sib ulg'ayishi, turli -tuman sarguzashtlarini bayon qilish jarayonida odob-axloq muammolariga keng o'rin beriladi, inson tarbiyasi, milliy qadriyatlar hamisha diqqat e'tiborda turadi.

7. Manbaning ko'pligi, mavzu jihatdan xilma-xilligini hisobga olib muhokamaga qo'yilgan MBIda mashhur xalq dostonchisi Fozil shoirning

repertuaridan yozib olingan birgina «Alpomish» dostoni-dan odob-axloqqa doir ba'zi durdona misralarni tahlil qilishga harakat qildik.

8. Xalq dostonlarida, jumladan «Alpomish»da ma'naviy-axloqiy va ta'lim-tarbiya masalalarining qo'yilishi epik o`rin darajasiga ko'tarilgan va syujet rivojining asosini belgilaydi. Dostonda talqin qilingan bu masalalar o`zbek xalq didaktikasining chinakam mag`zi bo`lib, insonning inson sifatida buyukligi, uning aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy kamolotga erishuvida nimalarga rioya qilish zarurligini asoslab ko`rsatuvchi yo`l-yo`riq va dasturdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo`lida.-T.: O`zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida:
xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O`zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T: «O`zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. O`zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. - T.: «O`zbekiston», 2005.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali. T:-1998, 2-son, 8-bet.
6. Abdullaev M., Xusanboev M. - Ma'naviyat. - Farg`ona, 1999.
7. Abdurahimov A.Saodatga eltuvchi bilim. - T.: Movaraunnahr, 2005.
8. Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim, I-II-kitob. - T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi. 2005.
9. Abdurahmonov. Qalb ruhi. - T.: 2005 .
10. A. Navoiy. Mahbub ul-qulub - T.: 1983.
11. Allomov A.Bebaho ma'naviy meros G`G` Xalq ta'limi. -1993., № 2-3.
12. Alpomish», doston, qo`lyozma. Aytuvchi qora baxshi Umirov. Yozib oluvchilar: M.Murodov, A.Ergashev.
- 13.Baratov N., Aliqulov X. O`rta Osiyo mutafaakirlari axloq haqida. - T.: O`zbekiston 1974.
14. Bartold V. Baxshi. Sochineniya T.: V. M. 1968, s.501,
15. Beruniy. Ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida. - T.: 1992.
16. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. - T., 1995.
- 17.Bobomurodov A. Komil insonlar yo`lidan. - T.:Movaraunnahr, 2003.
18. Bozorov O., Shodiev D.. O`rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar - Samarqand - Zarafshon 1992.
19. Vatan va millat muqaddasdir. - T.: O`qituvchi. 1996.
20. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. L.: 1940, s 208.
21. Yodgorov R.Oila tarbiyasida otaning roli.-ToshDU to`plami: 1996.

22. Jalilova G. Jonu jigarlik burchlari G`G` Oila va jamiyat. - 1996. - №14.
23. Jumaboev Y.J. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. - T.: O`qituvchi, 1997.
24. Jumaboev Y.J. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. - T.: Fan, 1997.
25. Ziyomammedov B. Komilikka eltuvchi kitob. - T.: 2006. «Turon-Iqbol» nashriyoti.
26. Ziyomammedov B. Pedagogika (o`quv qo`llanma). - T.: 2006. «Turon-Iqbol» nashriyoti, 110-bet.
27. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Ma`rifat asoslari. - T.: Chinor ENK 1998, 123-bet.
28. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat. 1997, 101-bet.
29. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg`usi. - T.: O`zbekiston, 1996.
30. Imom al Buxoriy. Ilmu ma'rifat nuri. Saylanma hadislar. - T.: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1998.
31. Kalonxonov M., Kalonxonova M. qadriyatnoma, yohud yuz o`gitga yuz rivot. T.: «Nihol» nashriyoti, 2006, 304 - bet.
32. Mavlonova R., Turaeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. - T.: O`qituvchi, 2001, 510-bet.
33. Mahkamov U. Ahloq odob saboqlari - T.: 1994.
34. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O`zbekiston, 2001.
35. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. - T.: O`qituvchi, 1994
36. Munavvarov A.K. Pedagogika. - T.: O`qituvchi, 1996, 199-bet.
37. Murodov M. O`zbek qadriyatlari. - T.: Cho`lpon, 1995.
38. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. - T.: O`qituvchi 1994.
39. Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. qadriyatnoma, I-kitob - T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001, 544-bet..
40. Musurmonova O. Hadislar - ma'naviyat manbai. - T.: O`qituvchi 1992.

41. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O`qituvchi, 1996.
42. Musurmonova O. O`quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. - T.: 1993.
43. Nazarov M., Tohirov O. Ma'naviyat - ibrat. - T.: Minhoj 2002.
44. «Nurali». Doston, qo`lyozma. Aytuvchi qora baxshi Umirov. Yozib oluvchilar: M.Murodov, A.Ergashev. qarshi DU «Folklor» arxivi.
45. Nishonova S. Ma'naviyat saboqlari.- T.: O`qituvchi 1994.
46. Obobnoma. - T.: Fan, 1992.
47. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. - T.: Ma'naviyat, 1999.
48. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari - T.: O`qituvchi, 1995.
49. «Semurug`». Doston, qo`lyozma. Aytuvchi qora baxshi Umirov, yozib oluvchilar: M.Murodov, A.Ergashev qarshi DU «Folklor» arxivi.
50. Tursunov I.Y., Nishonaliev O`.N. Pedagogika kursi. - T.: O`qituvchi. 2001. 230-bet.
51. Tursunov E.D. qazaq auo`z sdibistin jasusho`lardo`n bayo`rlaro` okileri. Almato`, T-1976, 46-51-betlar.
52. Usmonov R. Saodatnoma: Tanlangan asarlar. - T.: O`qituvchi 1995.
53. Usmonov M. Yaxshi fazilat insonga ziynat. - T.: O`zbekiston 1992.
54. Fozilov J., Sultonov R. ,Saidov H. O`quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - T.: Sharq 200.
55. Ergashev A., Omonova G. Dostonlarda ayrim urf-odatlar va milliy qadriyatlar. qarshi, «Nasaf» 2000. 56-bet.
56. Ergashev A. Mangu tilovat. qarshi, «Nasaf» 2000.
57. Yusupov E., Ismoilov F. Inson barkamoligi. - T.: Universitet , 1998
58. Yusupov E. Omila - ma'naviyat bulog`i. - T.: O`zbekiston 2003.
59. Yusupov E. qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o`rni.- T.: Universitet, 1996.
60. O`zbek sovet entsklopediyasi. 2-tom, T: 1972, 98-99 betlar.

Abrorov Umidning 5141600–Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «Ta'lim va tarbiya jarayonida “Alpomish” dostonidagi ilg'or g'oyalardan foydalanish» mavzusidagi BMTga ilmiy rahbarning

XULOSA

Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda yuz berayotgan tub va yangi-yangi islohatlar, o'zgarishlarning hammasi yangi demokratik va adolatparvar davlatimizning ma'naviy rivojini, xususan, uning asosi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tarilishini talab qilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan yana milliy zamindagi tarbiyaga, milliy pedagogikamizning asl durdonalariga-folklor asarlariga qayta-qayta murojaat etishni talab qilmoqda. Ana shu holatlarni hisobga olib, xalq dostonlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini Abrorov Umid baholi-qudrat tadqiq etishga harakat qilgan.

Muammoni o'rganish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish maqsadida, xalq pedagogikasi va qadriyatlaridagi axloqiy tarbiyaga tegishli bilimlardan, xususan, dostonlardagi xalqona xulosalardan samarali foydalanishga e'tibor bergan. Chunki, bu sohadagi ijodkor xalqning tugal va sermazmun mulohazalari har bir o'quvchi-yoshlarda o'z-o'zligini anglashga, ajdodlar ruhiga mos tarzda tarbiyalanishiga va ularda ma'naviy-axloq tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, komil inson bo'lib etishishiga asos bo'la oladi. Ishning asosiy maqsadi “Alpomish” dostoni asosida o'quvchi - yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosining pedagogik asoslarini tadqiq qilishdan iborat. Unda ko'zlangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni echimini topishga uringan: dostonning boshqa namunalari qatori xalq pedagogikasining bevosita tarkibiy qismi ekanligini asoslagan; bugungi kunda xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va qadriyatlarining davlat maqomi darajasiga ko'tarilganligini ta'kidlagan; ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bulardan foydalanishning samarali usul va uslublaridan foydalanishga harakat qilgan; o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida “Alpomish” dostonining ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini ko'rsatishga, mana shu tarbiya bilan bog'liq bevosita etnopedagogik xulosalarni tavsiflash va izohlashga e'tiborni qaratgan. Shuningdek, ijtimoiy sifatlarning eng asosiysi va yuqori cho'qqisi sanalgan vatanparvarlik to'yg'usi va tushunchasining, tarbiyasining “Alpomish” dostonida ifodalanishi baholi qudrat ilmiy pedagogik tadqiq eta olgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.



Ilmiy rahbar:

prof. Jumanazarov U.A.

Abrorov Umidning 5141600–Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «Ta'lim va tarbiya jarayonida "Alpomish" dostonidagi ilg'or g'oyalardan foydalanish» mavzusidagi BMiga

T A Q R I Z

Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari har bir jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan va hozir ham shunday ahamiyat kasb etmoqda. Ammo bu masalaning nihoyatda dolzarbligi jamiyatning yangilanish, yangi bir pog'onaga ko'tarilish davrida, sifat-o'zgarishlari ro'y berayotgan davrda yanada ham kuchayadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi. Bunday deyshimizning asosiy sababi shuki, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga insoniy fazilat va xislatlar singdiriladi, xolos. Ana shular evaziga esa insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi. Agar tarix sahifalaridan o'chmas iz qoldirgan va ma'naviy merosimiz xazinalaridan munosib o'rin egallagan nodir manbalarga bir nazar solsak, ushbu mushohadaning yanada to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz: buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanmasinlar, bo'lg'usi kelajak avlodlarining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tiborini qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. Ular o'zlarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki tarbiyaga doir maxsus asarlarida bayon etganliklarini ko'ramiz. Bundan biz keyingi yosh avlodlar ham faxrlanamiz, ham g'ururlanamiz.

Muammoni o'rganish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish maqsadida, xalq pedagogikasi va qadriyatlaridagi axloqiy tarbiyaga tegishli bilimlardan, xususan, dostonlardagi xalqona xulosalardan samarali foydalanishga e'tibor bergan. Chunki, bu sohadagi ijodkor xalqning tugal va sermazmun mulohazalari har bir o'quvchi-yoshlarda o'z-o'zligini anglashga, ajdodlar ruhiga mos tarzda tarbiyalanishiga va ularda ma'naviy-axloq tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, komil inson bo'lib etishishiga asos bo'la oladi. Ishning asosiy maqsadi "Alpomish" dostoni asosida o'quvchi - yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosining pedagogik asoslarini tadqiq qilishdan iborat. Unda ko'zlangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni echimini topishga uringan: dostonning boshqa namunalarini qatori xalq pedagogikasining bevosita tarkibiy qismi ekanligini asoslagan; bugungi kunda xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va qadriyatlarining davlat maqomi darajasiga ko'tarilganligini ta'kidlagan; ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bulardan foydalanishning samarali usul va uslublaridan foydalanishga harakat qilgan; o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida "Alpomish" dostonining ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini ko'rsatishga, mana shu tarbiya bilan bog'liq bevosita etnopedagogik xulosalarni tavsiflash va izohlashga e'tiborni qaratgan. Shuningdek, ijtimoiy sifatning eng asosiysi va yuqori cho'qqisi sanalgan vatanparvarlik to'yg'usi va tushunchasining, tarbiyasining "Alpomish" dostonida ifodalaniishi baholi qudrat ilmiy pedagogik tadqiq eta olgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Taqriri:  f.f.n. Ibragimova F.



Abrorov Umidning 5141600-Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «Ta'lim va tarbiya jarayonida "Alpomish" dostonidagi ilg'or g'oyalardan foydalanish» mavzusidagi BMiga

TAQRIZ

Xalq pedagogikasi ham uning o'zak tarmog'i hisoblangan folklor asarlari uzoq tarixiy bosqichlarini boshidan kechirib kelmoqda. Har ikkalasining ham yoshlar tarbiyasidagi ta'sir kuchi nihoyatda katta va kuchli, ibratli jihati beqiyos. Buni biz ularning o'ta hayotiyliigi, ta'sirchanligi, serqirraligi va serma'noligida ko'ramiz; ularni bevosita ijodkor xalq tomonidan jonli an'analarda ijro etilganida, yaratilganida guvoh bo'lamiz; eng muhimi, milliy ta'lim-tarbiyamizning eng dolzarb masalalarining echimini hal qilishga qaratilganligiga ishonch hosil qilamiz.

Shuning uchun ham xalq pedagogikasi asarlarida asosiy o'rinni egallagan inson odobi, ta'lim-tarbiyasida o'z izini qoldiruvchi milliy an'analar, ijodkor xalqimizning psixologiyasi bilan bog'liq maqsad va o'ylari, quvonch-shodliklari, g'am-g'ussalari, armonlari, milliy axloqiy qadriyatlarini va qarashlarini o'z sahifalarida saqlagan. Shuning uchun ham buyuk meros sifatida yashab kelayotgan folklor asarlari alohida tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, hozirgi kunda tezlik bilan keng miqyosda ularni to'plash, o'rganish va baholi qudrat ilmiy tadqiq etish hozirgi zamon ilmining eng dolzarb vazifalaridan biri bo'la oladi.

Mazkur ishning asosiy maqsadi "Alpomish" dostoni asosida o'quvchi - yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosining pedagogik asoslarini tadqiq qilishdan iborat. Unda ko'zlangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni echimini topishga uringan: dostonning boshqa namunalarini qatori xalq pedagogikasining bevosita tarkibiy qismi ekanligini asoslagan; bugungi kunda xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va qadriyatlarining davlat maqomi darajasiga ko'tarilganligini ta'kidlagan; ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bulardan foydalanishning samarali usul va uslublardan foydalanishga harakat qilgan; o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida "Alpomish" dostonining ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini ko'rsatishga, mana shu tarbiya bilan bog'liq bevosita etnopedagogik xulosalarni tavsiflash va izohlashga e'tiborni qaratgan. Shuningdek, ijtimoiy sifatlarining eng asosiysi va yuqori cho'qqisi sanalgan vatanparvarlik to'yg'usi va tushunchasining, tarbiyasining "Alpomish" dostonida ifodalanishi baholi qudrat ilmiy pedagogik tadqiq eta olgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



Abroilov B
Boysinova J

G'izzat
shaxar
27-mak-
tab.